

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI
KAFEDRASI**

Himoya qilishga ruxsat beraman
Tarix fakulteti dekani
_____ dots.A. Pardayev
_____ 2019 y.

**5111600 – MG, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

**“Davlat tashqi siyosatida integratsiyalashuv omili
(O'zbekiston misolida)”**

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Salimov N.
Ilmiy rahbar: U.Norbekov

BMI MG', ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № __ ____. ____. 2019 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri dots.M.Xoshimxonov
(Ismi va sharifi)

(imzo)

Jizzax - 2019

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| KIRISH | 3 |
| I-BOB. INTEGRATSIYA MUAMMOLARI TAHLILINING NAZARIY VA SIYOSIY ASOSLARI | |
| 1.1 Integratsion jarayonlarning ilmiy-nazariy tavsifi..... | 10 |
| 1.2 Integratsiya muammolarining zamonaviy tendensiyalari | 32 |
| II-BOB. INTEGRASIYALASHUV DAVLAT TASHQI SIYOSATINING MUHIM YO‘NALISHI | |
| 2.1 O‘zbekiston tashqi siyosatida integratsiya masalalari | 43 |
| 2.2 O‘zbekiston mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar tizimida ishtirokining bugungi holati..... | 56 |
| XULOSA | 67 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI | 71 |
| ILOVA | 78 |

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Davlatlar paydo bo‘libdiki, boshqa davlatlar bilan turli sohalar va yo‘nalishlarda aloqalarni yo‘lga qo‘yib keladi. Biroq davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar shakli ham turlicha, ya’ni ikki tomonlama, uch tomonlama, ko‘p tomonlama. Integratsiyalashuv ham davlatlararo munosabatlarda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda integratsiya omili xalqaro siyosatda o‘ziga xos siyosiy institutlar ko‘rinishi sifatida ajralib turadi. Negaki o‘zgarayotgan jamiyatda davlatlarning o‘zaro aloqadorligi yanada ortib bormoqda. Aytish joizki, siyosiy jarayonlarda integratsiyalashuvning ham turli ko‘rinishlari, shakllari mavjud. Buni hamkorlik qilayotgan davlatlar joylashgan makon, munosabatga kirishayotgan davlatlar manfaatlari ko‘lamining tahlilidan va boshqa omillardan kelib chiqib aniqlash mumkin.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligining tarixan juda qisqa davrida jahon siyosatining uzviy bo‘g‘ini sifatidagi jarayonlar oqimiga sezilarli ta’sir o‘tkaza boshladi. Jahon siyosati yo‘nalishlarida uning o‘ziga xos tamoyillariga, yondoshish usuliga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini yo‘naltirib turishdagi uslubiga e’tibor kuchaydi.

Mamlakatimiz Birinchi prezidenti I.A.Karimov O‘zbekistan hukumati nomidan turli mustaqil davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy jihatdan manfaatdorligini nazarda tutib, yangicha sharoitlarda, yangicha shakl va mazmundagi davlatlararo hamkorlikni vujudga keltirish tashabbusi bilan chiqa boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi ham o‘z mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab davlat tashqi siyosatida integratsiyalashuv omiliga alohida e’tibor berib kelmoqda.

Birlashgan Millatlar tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay Hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati, Kollektiv Xavfsizlik shartnomasi tashkiloti singari xalqaro va

mintaqaviy tashkilotlar tizimida O‘zbekiston o‘z o‘rni bilan ishtirok etib kelmoqda.

To‘g‘ri, sanab o‘tilgan integratsion uyushmalar o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ham ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ularning rivojlanish istiqbollari ham turlicha.

So‘nggi paytda jahon bo‘ylab yuz berayotgan global o‘zgarishlarning tezligi universal, regional, subregional xalqaro tashkilotlarning faoliyatini jiddiy tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, integratsiyalashuv barobarida amalga oshadigan tashqi siyosiy faoliyatni siyosiy fanlardagi tadqiqotning ilg‘or metodologiyasidan foydalangan holda izchil kompleks tadqiqotni amalga oshirish davlat tashqi siyosatida integratsiyalashuv omilining mohiyatini ochib berishga yordam berishi muqarrar.

Bundan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi quyidagilar bilan ifodalanadi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatida integratsiya omili muhim bir yo‘nalish hisoblanadi. Demak, davlatning boshqa mamlakatlar bilan ko‘p tomonlama hamkorligini, aniqrog‘i, integratsiyalashuvini doimiy ravishda monitoring qilib borish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyati kattadir;

ikkinchidan, bizningcha, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o‘rtasida integratsion aloqalarning o‘z rivojini topmasdan kelayotganligi ham ma’lum ma’noda integratsion jarayonlarning kundalik hayotimizdagi muhim masalalardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Negaki, bugungi kunda mintaqaning besh davlatida yashab kelayotgan xalqlar tarixan bir makonda hamkorlikda istiqomat qilib kelishganligi hammaga ma’lum;

uchinchidan, davlatlarning u yoki bu integratsion birlashmalardagi ishtirokini siyosiy tahlil qilish bilan xalqaro munosabatlarda integratsiyalashuv jarayonlarining yutuq va kamchiliklari bo‘yicha tegishli xulosalarni olish mumkin;

to'rtinchidan, so'nggi paytda jahon bo'ylab yuz berayotgan global o'zgarishlarning tezligi universal, regional, subregional xalqaro tashkilotlarning faoliyatini jiddiy tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa integratsiyalashuv barobarida amalga oshadigan tashqi siyosiy faoliyatni siyosiy fanlardagi tadqiqotning ilg'or uslubiyatidan foydalangan holda izchil kompleks tadqiqotni amalga oshirish davlat tashqi siyosatida integratsiyalashuv omilining mohiyatini ochib berishga yordam berishi muqarrar.

Muammoning ilmiy o'rganilganlik darajasi. Tadqiqotda ko'rib chiqilgan masalalar bir qancha mashhur olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular qatorida A.Etzoni, K.Doych, D.Mitrani, Ye.Xaas, J.Monne, S.Pistoun, E.Uistrich, B.Topornin, Yu.Yumashov va boshqalarni qayd qilishimiz mumkin¹.

Xususan, mashhur italiyalik federalist, Yevropa federal harakatining yetakchisi A.Spinelli kechayotgan integratsion jarayonlarning federativ model asosida rivojlanishini davlatlarni birlashtirish maqsadidagi eng samarali yo'l deb bilgan².

Amerikalik olim K.Doych esa alohida olingan shaxslar, elitalar, guruhlarning o'zaro munosabatlariga urg'u beradi. Uning fikricha, integratsion jarayonlar aynan shunday sotsiumlarning irodasiga bog'liq bo'ladi³.

Hozirgi kunda integratsion jarayonlarni o'rganishda va tahlil qilishda qo'llaniladigan va biz uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiy-nazariy yondashuv vakillari har qanday integratsion jarayon zaminida davlatlarning iqtisodiy manfaatlari yotishini ta'kidlashadi, shuningdek umumiy integratsiya dinamikasini davlatlarning iqtisodiy birlashuv bosqichlarini amalga oshishi bilan bevosita bog'lashadi⁴.

¹Etzioni A. Political unification: a comparative study of leaders and forces. New York: Rinehart, 1965; Deutsch K. Political community at the international level: problems of definition and measurement. Princeton, New Jersey: Princeton University, 1953; Mitrani D. A working peace system. Chicago: Quadrangle Books, 1966; Haas E. The uniting of Europe, 2nd ed. Stanford, California: Stanford University Press, 1968; Monnet J. A ferment of change // Journal of common market studies. 1962. № 1; Pistone S. Altiero Spinelli and the strategy for the United States of Europe // The European Union: readings on the theory and practice of European integration / Ed. by B.Nelsen and A.Stubb. Boulder: Reinner, 1994; Wistrich E. The United States of Europe. London: Routledge, 1994; Топорнин Б.Н. Европейское право. Учебник. М.: Юристъ, 1998; Юмашев Ю. М. Правовая эволюция Европейских Сообществ: до и после Маастрихта // Московский журнал международного права. 1992. № 3.

² Pistone S. Altiero Spinelli and the strategy for the United States of Europe // The European Union: readings on the theory and practice of European integration / Ed. by B.Nelsen and A.Stubb. Boulder: Reinner, 1994. P. 69-75.

³ Deutsch K. Political community at the international level: problems of definition and measurement. Princeton, New Jersey: Princeton University, 1953. P. 31.

⁴Каранг: Molle W. The economics of European integration: theory, practice, policy. Aldershot: Dartmouth, 1994; Спиридонов И.А. Мировая экономика. М.: Инфра-М, 1999. С.66.

Bundan tashqari, mintaqada kechayotgan geosiyosiy jarayonlarga tashqi va ichki omillarning ta'siri borasida bir qator olimlar va mutaxassislar tadqiqot olib borishgan. Ular qatorida S.Kushkumbayev, S.Primbetov, D.Trofimov, U.Merri, O.Zotov kabi tadqiqotchilarni keltirishimiz mumkin¹.

O'z navbatida, Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan integratsion jarayonlarni nazariy va amaliy tomondan tahlil qilishda bir muncha yutuqqa erishgan o'zbekistonlik tadqiqotchilar R.Jumayev, N.Jo'rayev, G.Saidazimova, F.Tolipov, I.Boboqulov, B.Xo'janov va boshqalarning izlanishlari ham diqqatga sazovordir².

Lekin, shu bilan birga, yuqorida qayd qilingan ishlarda Markaziy Osiyoda kechayotgan integratsion jarayonlar faqat alohida olingan bir fan doirasida ko'rib chiqilgan, ya'ni tadqiqot mavzusiga tizimli yondashilmagan. Ushbu magistrlik ishi esa mintaqadagi integratsion jaryonlar bilan bog'liq bo'lgan barcha omillar (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, xavfsizlik va b.) birgalikda tizimli tahlil qilinganligi, mavjud muammolarning yechimiga doir taklif va tavsiyalar berilganligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. O'zbekiston tashqi siyosatida integratsiyalashuv omili tadqiqotning ob'ektini tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti esa integratsiya muammolarining zamonaviy tendensiyalari hamda O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro integratsion tizimlarda ishtiroki bilan bog'liq siyosiy jarayonlar tahlili hisoblanadi.

BMIning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi magistrlik ishining quyidagi jihatlarida namoyon bo'lgan:

- «integratsiya» tushunchasi tashqi siyosat muammolari nisbatida tadqiq etilgan;

¹C.Кушкумбаев. Основные тенденции в геополитических процессах в ЦА. [www/caap/kz](http://www.caap/kz) 02/2003; Д.Трофимов Россия и США в ЦА: Проблемы, перспективы, интересы. // «Центральная Азия и Кавказ» №1(25), 2003 г.; У.Мерри. Не такая уж «Большая игра в ЦА // Доклад на конференции Центра Маршалла в Алматы, июнь 2001 г; Хўжанов Б.А. «Геомафкуравий ўзгаришлар шароитида миллий-этник муносабатлар» (Марказий Осиё мисолида). Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун автореферати. Т., 2002; О.Зотов ЦА – регион глобальных геополитических интересов www.rambler.ru 10/2003.

²А.Каюмов. Приоритетные направления экономической интеграции в Центральной Азии // Материалы международной конференции «Стабильность в Центральной Азии в постконфликтный период», Ташкент, 14-15 июня 2002 г.; Г.Саидазимова. Интеграция в Центральной Азии: реалии, вызовы, возможности. // «Центральная Азия и Кавказ», №3(9), 2000; А.Таксанов. Факторы интеграции и дезинтеграции Центральной Азии», www.centrasia.ru, 02.04.2003; Ф.Талипов. Сравнительный анализ интеграции в СНГ и ЦА // «Центральная Азия и Кавказ», №5(6), 1999 год.

- «integratsiya» tushunchasi borasida bildirilgan nazariy-ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilingan;
- O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida integratsiyalashuv omilining ahamiyati yoritilgan;
- O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar tizimidagi ishtiroki va davlat milliy manfaatlarining o‘ziga xosligiga doir mulohazalar bildirilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning oldiga qo‘ygan maqsadi O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida integratsiyalashuv omilining o‘rni va ahamiyatini, shuningdek integratsion jarayonlarning istiqbollarini tadqiq etishdan iborat.

Shu maqsadda yozilgan magistrlik ishi quyidagi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- «integratsiya» tushunchasi tavsifini atroflicha o‘rganish;
- integratsion jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan ilmiy-amaliy yondashuvlarni qiyosiy tadqiq etish;
- integratsiya muammolarining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish;
- O‘zbekiston tashqi siyosatida integratsiya masalalari bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish;
- O‘zbekiston Respublikasining mintaqaviy va xalqaro integratsion jarayonlardagi ishtirokini va uning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatish;

- O‘zbekiston uchun integratsiyalashuv omilining (hamkorlikning) istiqbollari yuzasidan fikr-mulohazalarni berish.

BMIning tuzilishi. Magistrlik ishi kirish, 4 ta paragrafni o‘z ichiga olgan 2 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I-BOB. INTYeGRASIYa MUAMMOLARI TAHLILINING NAZARIY VA SIYoSIY ASOSLARI

1.1. Integratsion jarayonlarning ilmiy-nazariy tavsifi

Avvalo «integratsiya» tushunchasining lugʻaviy maʼnosi va bir qator tadqiqotchilarning bu boradagi mulohazalariga toʻxtalsak.

«Integratsiya» tushunchasi lotincha «integratio» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, lugʻaviy jihatdan «birlashish», «toʻldirish» degan maʼnolarni anglatadi. Mazmun va mohiyatiga koʻra «integratsiya» tushunchasi koʻpqirrali. Shu boisdan uni amaliyotda qoʻllanilayotgan sohasiga qarab talqin qilishga ehtiyoj seziladi. Jumladan, u davlatlararo aloqalarga nisbatan qoʻllanilganda, mustaqil subʼektlarning (muayyan maqsadlarni koʻzlab) ixtiyoriy ravishda hamkorlik munosabatlarini yoʻlga qoʻyishini yoki shu maqsadda tegishli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishlarini nazarda tutadi. Aytish joizki, bunday birlik (davlatlar hamkorligi) amaliyotda ishtirok etuvchilarning quruq munosabatlari majmuasinigina oʻzida aks ettirmaydi. Negaki, har qanday integratsion jarayon unda ishtirok etuvchilarning arifmetik yigʻindisigina boʻlmasdan, u oʻzining namoyon boʻlishi va qamroviga koʻra koʻlami kengdir.

Mavjud ijtimoiy-siyosiy fanlarga doir ensiklopedik lugʻatlarda «integratsiya» tushunchasiga turlicha izoh berilgan. Bir tomondan, ularning aksariyatida tushunchaning lugʻaviy maʼnosi bir xil boʻlsada, ikkinchi tomondan, «integratsiya» tushunchasi mazmun va mohiyat jihatidan turlicha (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, huquqiy va b.) talqin qilishadi.

Moskvada chop etilgan «Diplomaticheskiy slovar» lugʻatida ushbu tushunchani ham siyosiy, ham iqtisodiy tomondan tizimli yondashib, izoh berishga harakat qilingan, yaʼni: «Integratsiya – siyosiy va iqtisodiy tomondan jamiyat yoki davlatning ichki holatini tavsiflovchi tushuncha.

Integratsion jarayonlar ob'ektiv asosga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va jamiyatda mavjud ilmiy-texnik revolyutsiya natijalari bilan belgilanadi, shuningdek mehnatning xalqaro taqsimotining kuchayishini va xo'jaliklarning o'zaro yaqinlashuvini aks ettiradi...»¹.

«Slovar inostrannykh slov» nomli lug'atida «Integratsiya – bir xil ijtimoiy tuzumga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq davlatlar milliy xo'jaliklarining o'zaro moslashish yoki birlashish jarayonidir», - deb berilgan².

Konovalova V.N. tahriri ostida chiqqan lug'atda tushunchaga siyosiy tomondan izoh berishga harakat qilingan, ya'ni: «Integratsiya – siyosiy institutlar, davlat yoki davlatlararo doirada ma'lum bir siyosiy umumiylikka, davlat va jamiyat rivojlanishida barqarorlikka erishish maqsadida turli xil siyosiy kuchlarning o'zaro qo'shilishi yoki birlashishidir»³.

Professor V.Bobkovning fikricha esa, integratsiya unda ishtirok etuvchi sub'ektlarga alohida olingan hech bir davlat umuman erisha olmaydigan moddiy, intellektual va boshqa vositalarga ega bo'lish imkoniyatini yaratib beradi⁴.

«Integratsiya» atamasi g'arbiy Yevropa mamlakatlari davlatlararo institutlarni yaratib boshlaganda, shuningdek iqtisodiy siyosatni koordinatsiyalash va savdo erkinligini ta'minlash maqsadida iqtisodiy birlashmalarni tuzish paytida xalqaro munosabatlarda ishlatila boshlandi⁵.

Shunisi qiziqarliki, Yevropa integratsiyasini tahlil qiluvchi olimlar orasida ushbu mintaqa doirasidagi davlatlar integratsiyasiga nisbatan shu kungacha yagona bir yondoshuv ishlab chiqilmagan. Lekin shu bilan birga, ularning hammasi integratsiya ijobiy hodisa ekanligini, shuningdek bu «hamma ishtirok etuvchi tomonlar uchun bir qator ustunliklarga ega bo'lishga qaratilgan jarayon»¹ sifatida e'tirof qilishmoqda. Aynan Yevropa mintaqasidagi davlatlarga nisbatan Jan Monne quyidagicha fikr bildirgan: «Agar mintaqa davlatlari o'z milliy suverenitetlarini ustuvor yo'nalish sifatida qarab rivojlanadigan bo'lishsa, Yevropada hech qachon tinchlik bo'lmaydi. Chunki bunday rivojlanish davlatlarning ustunlik qilish siyosatiga va milliy iqtisodiy

¹ Громыко А.А. и др. Дипломатический словарь, Том 1. М.: «Наука», 1984 г. С.402.

² Словарь иностранных слов. М.: «Русский язык», 1987. С. 196.

³ Политология. (краткий словарь) под ред. В.Н.Коновалова, Р-Д.: «Феникс», 2001. С. 100.

⁴ Бобков В. Баланс терпения и нетерпения //Рэспубліка. 1998. 1 декабры. С. 5.

⁵ Joshua S.Goldstein. International relations. P. 390.

proteksionizmiga olib keladi. Yevropa davlatlari yolg'iz holda o'z xalqlari uchun yetarli darajadagi turmush sharoitini yaratib bera olmaydilar. Zaruriy rivojlanish dinamikasiga faqat shu narsa bilan erishish mumkinki, bunda mintaqa davlatlari federatsiya yoki boshqa bir «Yevropa konfederatsiyasiga» birlashadilar, bu esa o'z navbatida iqtisodiy yagonalikni keltirib chiqaradi»¹.

Akademik B.N.Toporinning ta'kidlashicha, bugungi kunda Yevropa hamjamiyatiga kiruvchi davlatlarga «Xalqaro hamkorlik» yoki «Yevropa hamkorligi» kabi eski tushunchalarini qo'llash va ishlatish ancha qiyin bo'lib qoldi, chunki ular hozirgi vaqtda sodir bo'layotgan hodisalarning tub mohiyatini ochib bermaydigan bo'lib qolgan... Eng avvalo, integratsiya shunday hamkorlik chegaralaridan tashqariga chiqib ketish deb tushuniladi...»².

K.Doych integratsiyani davlatlarning tinch yashashini ta'minlashi mumkin bo'lgan real imkoniyat deb qaraydi. Uning fikricha, savdoni kengaytirish, odamlarning erkin harakati, madaniy almashinuvning rivojlanishi, siyosiy konsultatsiyalarning aktiv o'tkazilishi va shunga o'xshash kabi boshqa chora-tadbirlar orqali integratsiyaga erishish mumkin³.

«Integratsiya» tushunchasini tahlil qilishda va o'rganishda zamonaviy yondashuv shu narsa bilan xarakterlanadiki, bunda integratsiya «umumiy manfaatlarni realizatsiya qilish va hisobini olib borish maqsadida davlatlar o'zlari yaratayotgan va hammasi uchun yagona bo'lgan yangi institutsional strukturaga o'z suverenitetlarining bir qismini berish jarayoni» sifatida qaraladi⁴.

Integratsion jarayonlarning oxirgi natijalari to'g'risidagi savollar ham integratsion amaliyotga kuchli ta'sir qila boshladi. Integratsion jarayonning sub'ektlari integratsiyaning yakuniy bosqichlarini turlicha talqin qilishadi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, integratsiya tushunchasi ostida ushbu jarayon natijasida unda ishtirok etuvchi davlatlar orasida chegaralarning yo'qolib ketishi tushuniladi. Boshqa talqinga ko'ra, integratsiya tushunchasi ostida ushbu jarayon natijasida unda ishtirok etuvchi davlatlarning yagona iqtisodiy-siyosiy borliqqa birlashishi

¹ Кизима С.А., Бабкин А.И. Системные аспекты организации и функционирования Европейского союза // Европейский союз: история, политика, экономика, право. Международная научно-практическая конференция (17-18 декабря 1997 года, Минск). Сб. науч. Тр. Мн.: Белгосуниверситет, 1998. С.106.

² Kohl H., Die Europäische Gemeinschaft – Bilanz und Perspektive // Europe – unsere Zukunft. Herford. 1989 – S.21

³ Топорин Б.Н. Европейское право. Учебник. М.: Юристъ, 1998. С. 14.

⁴ Corbey D. Dialectical functionalism: stagnation as a booster of European integration // International Organization. 1995. Vol. 49. № 2. P. 255.

tushuniladi. Oxirgi yondashuv mintaqaviy integratsiyaga tegishli bo'lgan funksionalizm nazariyasiga xosdir¹. Yana bir talqinga ko'ra, integratsiya – bu unda ishtirok etuvchi aktorlarning o'zaro iqtisodiy va siyosiy aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan jarayon, lekin shu bilan birga har bir davlatning davlat suvereniteti saqlanib qolinadi, deb qaraladi.

Bizning fikrimizcha, hozirgi paytda qayd qilingan oxirgi yo'nalish turli integratsion birlashmalarda ustunlik qilmoqda. Shu jumladan, bugungi kunda eng progressiv birlashma – Yevropa Ittifoqini ham bunga misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu struktura sub'ektlari qarashlarida yuqorida ko'rsatilgan barcha yo'nalish ham mavjud. Asosiy qarama-qarshiliklar milliy manfaatlar va birlashma manfaatlarini taqqoslaganda va muvofiqlashtirish ishlarini olib borganda vujudga keladi. Odatda milliy manfaatlar birlashma manfaatlaridan ustun keladi.

Shuni esda tutish kerakki, integratsion birlashmalarda vujudga kelayotgan turli muammolar yuzasidan munozaralar yillar mobaynida davom etishi mumkin. (Masalan, Buyuk Britaniyaning YeIga bo'lgan munosabati). Ammo integratsiyada ishtirok etishdan kelajakda olinadigan dividendlar hisobi unda barcha davlatlarni ishtirok etishga majbur qiladi.

Xullas, yuqoridagi fikrlar asosida quyidagi umumiy xulosalarni bildirish mumkin, ya'ni «integratsiya» so'zi bugungi kunda nafaqat Yevropa, balki butun dunyo xalqlari leksikonida ham odatiy so'zga aylanib bormoqda. Chunki «integratsiya»ga bo'layotgan tabiiy ehtiyojning ortib borishini hayotning vaqt nisbatdagi ijtimoiy fenomeni sifatida baholash mumkin. Shuningdek, shakllanayotgan yangicha dunyoviy tartibotda ham integratsiyaga davlatlararo hamkorlik yo'llarining eng maqbul varianti sifatida qarasa ham bo'ladi.

Aytish o'rinliki, mintaqaviy integratsion birlashmalarning faoliyati va natijalari ham turlicha bo'lishi ham tabiiy holdir. Ular orasida ko'pgina muammolarni hal qilishga erishgan tashkilotlar bilan bir qatorda, deyarli hech qanday ijobiy natijalarga erisha olmagan birlashmalar ham mavjud.

Masalan, regional miqyosda davlatlararo birlashma sifatida faoliyat ko'rsatuvchi sub'ektga Yevroittifoq tashkiloti yaqqol misol bo'la oladi. O'tgan

¹ Якобайт К. Теория региональной интеграции // Региональная интеграция в Центральной Азии. – Берлин.: Германский фонд международного развития, 1995 г. С.4.

qisqa davr mobaynida u «evropaviy g'oya» deb nom olgan mafkura asosida harbiy Yevropaning 25 ta davlatini birlashtirdi, tegishli hamkorlik institutlarini tashkil qildi va ularning ish faoliyatini nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va xavfsizlik masalalarini ham hal qilishga bog'lab qo'ydi.

Boshqa tomondan esa MDH, And pakti, harbiy Afrika davlatlarining Iqtisodiy hamkorligi va shunga o'xshash boshqa birlashmalar integratsiya yo'lida deyarli hech qanday progressiv natijalarga erisha olmadilar.

Umumiy holda xalqaro integratsiya shunday jarayonlarga mansubdirki, bunda milliy institutlar o'rnini davlatlararo institutlar egallaydi. Shuningdek davlat suvereniteti milliy miqyosdan regional yoki global darajaga o'tishi bilan xarakterlanadi. Shuni ham nazarda tutmoq

kerakki, BMT, NATO, YeI yoki MDH kabi shakll xalqaro tashkilotlarning yaratilishi davlatlararo birlashmalar rivojlanishining yagona yo'li emas. Bunday institutlarning tashkil topishi qandaydir siyosiy strukturalarning tuzilishsiz ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, zamonaviy texnologiyalar inshaklsion sohada davlat suvereniteti va davlat chegarasini tan olmasligini, shuningdek bu kabi tushunchalarga nisbatan ancha ustun turishini allaqachon namoyon qildi.

Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunga kelib siyosiy realizm asoslari – davlat suvereniteti va hududiy yaxlitlik – tushunchalarining, o'zining klassik ma'nosiga nisbatan, nazariy va amaliy tomondan bir muncha buzilishi sodir bo'lmoqda.

Umuman olib qaraganda, integratsion nazariyaning shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynagan, shuningdek ijtimoiy-siyosiy fanlar doirasida ma'lum mashhurlikka erishgan bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ularda integratsiya jarayonlarini nazariy va amaliy tomondan tahlil qilish va o'rganishda qo'llanilgan asosiy yondashuvlarni belgilab olishimiz mumkin. O'z mohiyatiga ko'ra, bu nazariyalar xalqaro integratsiyaning turli shakllariga nisbatan bo'lgan har xil yondashuv va nuqtai nazardir. Ammo ularning orasida bir qator umumiy jihatlari ham mavjuddir. Masalan, deyarli barcha integratsion jarayonlarni o'rganuvchi yondashuvlar tarkibida (ayniqsa, siyosiy integratsiya jarayonlariga taalluqli bo'lganlarda) Yevropada kechayotgan integratsion jarayonning keyingi rivojlanish yo'llari to'g'risida gipotezalar

mavjuddir. Shuningdek uning oxirgi natijasi to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Endi bevosita integratsion jarayonlarni kuzatish va o'rganishda, shuningdek tizimli tahlil qilishda qo'llaniladigan yondashuvlarni ko'rib chiqaylik.

1) Integratsion jarayonlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan eng birinchi va shu bilan birga eng siyosiy hisoblanadigan yondashuv – bu **federalizmdir**. A.Spinellining (mashhur italiyalik federalist, Yevropa federal harakatining yetakchisi) fikricha, «davlatlararo integratsion birlashmani yaratishda faqat federativ model tomonga keskin burilish butun Yevropani birlashtirishda ijobiy natijalarni berishi mumkin»¹. Ba'zi bir tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu yondashuv ayrim siyosiy birliklarni bitta yagona strukturaga birlashtirish asosida yotgan jarayonlarning qonuniyatlarini va ahamiyatga molik aloqalarini tushuntirib berishga harakat qilsa ham, o'z mohiyatiga ko'ra nazariya bo'la olmaydi².

Yevropa integratsion jarayoniga nisbatan federalistlar o'zlarining nazariy modelini ishlab chiqdilar va tegishli tezislarni olg'a surdilar. Unga ko'ra mintaqada maxsus (federal) institutsional tuzilma (ya'ni, integratsion guruh) vujudga kelishi kerak. Ushbu tuzilma integratsiyalanayotgan birliklar orasidagi munosabatni va har birining vakolatini belgilab berish bilan birga, «yagona markaz»ni yaratishga ham sabab bo'ladi.

Federalizm yondashuvining yana bir vakili E.Ustrichning fikricha, «federalizmning mohiyati shundaki, bunda hokimiyatning aksilmarkazlashuvi bunga ehtiyoj tug'ilgan barcha joyda amalga oshirilishi kerak bo'ladi...»³. Bu yerda shunga e'tibor berish lozimki, ushbu fikr, o'z mohiyatiga ko'ra, Yevropa Ittifoqi haqidagi Maastrixt shartnomasining asosiy prinsiplaridan biri – subsidiarlik prinsipining mazmunini beradi⁴.

¹ Pistone S. Altiero Spinelli and the strategy for the United States of Europe // The European Union: readings on the theory and practice of European integration / Ed. by B.Nelsen and A.Stubb. Boulder: Reinner, 1994. P. 69—75.

² European integration: theories and approaches / Ed. by H.Michelmann, P.Soldatos. Lanham, MD: University Press of America, 1994. P. 8.

³ Wistrich E. The United States of Europe. London: Routledge, 1994. P. 2.

⁴ Субсидиарлик принципи тўғрисида қаранг: Pennings F. Is the subsidiarity principle useful to guide the European integration process? // Tilburg foreign law review. 1992. Vol. 2. P. 153—163; Emiliou N. Subsidiarity: an effective barrier against «the enterprises of ambition»? // European law review. 1992. Vol. 17. P. 383—397; Toth A. The principle of subsidiarity in the Maastricht Treaty // Common market law review. 1992. Vol. 29. P. 1079—1106; Cass D. The word that saves Maastricht? The principle of subsidiarity and the division of powers within the European Community // Common market law review. 1992. Vol.

Siyosiy integratsiyani o'rganuvchi boshqa nazariyalarga nisbatan, boshi qadimgi Antik davrlar va o'rta asr Yevropa siyosiy bilimlariga borib taqaladigan «federalizm» chuqur falsafiy ildizlarga ega. Shunday bo'lsa ham, federalistik fikrlashning asosi sifatida quyidagi ikkita manba ko'rsatiladi:

1) XVII-XVIII asrlarda Yevropada tinchlikni mustahkamlash to'g'risidagi bir qator rejalar;

2) Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasi¹.

Ayniqsa, AQSh Konstitutsiyasining paydo bo'lishi, shubhasiz, federalistik qarashlarning rivojlanishiga kuchli impuls bo'lib xizmat qildi. Lekin qaysi model (Amerika, Shveysariya yoki boshqa davlatlarning modellari) dunyoda kechayotgan integratsion jarayonlarni chuqurlashtirishda asos bo'lib xizmat qila olishini aytish juda qiyin. Xususan, aynan shunday model federativ usulda Yevropa yoki Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini birlashtira oladimi yoki yo'qmi.

Xalqaro integratsiya nazariyasi sifatida «federalizm» shu narsani ta'kidlaydiki, integratsiyada ishtirok etuvchi davlatlarning o'zaro munosabati asosida ittifoq davlatning modeli yotishi kerak, shuningdek ushbu model oxirgi natijaviy mahsulot sifatida ham qaralishi lozim bo'ladi. Federalistlarning fikricha, federatsiyaning tuzilishi davlatlar orasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda tinch yo'llarni qo'llashga olib keladi, chunki tinchlik va xavfsizlik federatsiyaning asosiy qadriyatlaridan biridir. Shuningdek, ushbu yo'nalish vakillarining ta'kidlashicha, aynan federatsiya «maqsadli, demokratik va yetarli darajada samarali» tashkilot sifatida faoliyat ko'rsata oladi².

2) **Funksionalizm.** Xalqaro munosabatlarni o'rganishda mavjud an'anaviy yondashuvlarning nomukammalligi XX asrning birinchi choragidayoq namoyon bo'ldi. Vulfning ta'kidlab o'tishicha, «...dunyoni davlat yoki millat deb nomlanuvchi ma'lum bir bloklardan iborat deb, ularni shu ko'rinishda o'rganib bo'lmaydi. Real borliqda ushbu bloklar bir-biridan izolyatsiyalangan holda mavjud emasdir, shuningdek xalqaro munosabatlar nodavlat darajada ham mavjuddir va rivojlanib boradi...» D.Mitrani izdoshlari bilan bu g'oyalarni tadqiq qilishni davom ettirdilar va tarixiy o'zgarish xalqaro munosabatlarning yanada rivojlanishiga olib kelganligini, shuningdek sahnaga

¹ Mutimer D. Theories of political integration // European integration: theories and approaches / Ed. by

²Топорин Б.Н. Европейское право: Учебник. М.: Юристъ, 1998. С. 154.

keng ommaviy harakatlarning chiqqanligini va turli davlatlar fuqarolari orasidagi kontaktlarning ko'payganligini ko'rsatib berishdi¹.

Vaqt o'tishi bilan eski tizimning turg'unligi asta-sekin yo'qola boshladi. Lekin xalqaro kontaktlarning betartib ravishda rivojlanishi ularni ma'lum bir tartibga tushirishni talab qilar edi. Va aynan shu davrda xalqaro tashkilotlarning rivojlanish tarixini tushuntirib beruvchi ustuvor yo'nalish funksionalizm hisoblanar edi.

Xalqaro tashkilotlarning tarixini tahlil qilarkan, Mitrani xalqaro hamjamiyat ideal ravishda rivojlanishi uchun xalqaro tashkilotlar qanday funksiyalarni bajarishi kerakligi to'g'risida savol qo'ydi. Xalqaro tashkilotlarning asosiy vazifasi sifatida u hamjamiyat a'zolarining qonun oldida tengligini ta'minlash va ijtimoiy adolatni kafolatlashda deb bilgan. Bunda hech qanday yangilik yo'q edi, lekin bu ishlarni amalga oshirish uchun Mitrani bir qator yangiliklarni amalga kiritishni taklif qiladi.

Birinchidan, Millatlar Ligasida yirik davlatlarning to'g'ri vakilligini «tenglashtirish» maqsadida o'rta davlatlar guruhlariga birlashib vakillik qilishi, kichik davlatlar esa bir blokga birlashishini taklif qilgan. Shu tartibda ideal variantda barchaning tengligi ta'minlangan bo'lar edi.

Ikkinchidan, tug'ilayotgan muammolarni qisqa vaqt mobaynida hal qilish uchun ikkinchi darajali institutlarni bevosita regionlarda – davlatlarni birlashtirish maqsadida – tashkil qilmoq zarur deb hisoblagan. Ushbu institutlar Millatlar Ligasining markaziy organlariga bo'ysinishi kerak bo'ladi deb bilgan.

Uchinchi yangilik sifatida Mitrani e'tiborni nafaqat davlatlarning haq-huquqlariga, balki ularning vazifalariga ham qaratadi. U davlatlarga xalqaro ishlarda faolroq ishtirok qilishni taklif qiladi.

Xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolariga nisbatan o'zining funksional yondashuvini qo'llab, Mitrani kontinental miqyosda temir yo'l transporti tizimini, global miqyosda esa suv transporti va aviaatsiya faoliyatini mukammallashtirish g'oyasini ilgari surdi.

¹ Mitran, D. The progress of international Government, London, 1932; The Functional Theory of Politics, London, 1975; The Concept of International Organizations, 1981.

Funksional yondashuv faqat hukumatlararo xalqaro tashkilotlarning ish faoliyatini tahlil qilish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini izlash bilan chegaralanib qolmaydi. Aksincha, bu yo‘nalish ko‘pchiligi nodavlat ko‘rinishiga ega bo‘lgan bir qancha ixtisoslashgan tashkilotlar tarmog‘ini tuzishni nazarda tutadi. Funksionalistlarning fikricha, vaqt o‘tishi bilan oddiy odamlar orasidagi bog‘liqlik, ular bajarayotgan professional vazifasi tufayli oshib boradi va ular xalqaro munosabatlar tizimiga asta-sekin tortilib boradilar. Buning natijasida esa, dunyo va individuumlar orasidagi masofa vaqt o‘tishi bilan qisqarib boradi. Bu bilan davlatlararo munosabatlarga yo‘naltirilgan an’anaviy yondashuvni funksionalistlar qattiq reviziyaga uchratishadi.

Lekin, shu bilan birga funksional yondashuv bir qator zaif tomonlariga ham ega.

Birinchidan, funksionalistlar u yoki bu ixtisoslashgan tashkilot doirasida hamkorlikning siyosiy aspektiga uncha e‘tibor berishmadi. Ularning fikricha, barcha kechayotgan faoliyatning koordinatsiyasi o‘z-o‘zidan amalga oshishi lozim edi. Haqiqatda esa, xalqaro maydonda ko‘pgina (barchasi desa ham bo‘ladi) iqtisodiy sohalarning hamkorligi u yoki bu darajada siyosiy ko‘makka muhtojdir. Iqtisodiy o‘shish davrida qabul qilinayotgan qarorlarning siyosiy xarakteri deyarli bilinmaydi, ammo iqtisodiy krizis yoki resurslarning yetishmovchiligi paytida bu yaqqol ko‘zga tashlanib qoladi. Funksionalistlarning bir muncha idealizmi shundan iborat ediki, ular dunyoni cheklanmagan resurslar dunyosidan tashkil topgan deb bilishardi. (Maklaren)

Ikkinchidan, funksionalistlarning fikricha, odamlarning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tashkilotlarning faoliyati oxiri oqibatda harbiy xavfning kamayishiga olib keladi.

Lekin, shunday bo‘lsa ham, «boylar urishmaydi» degan fikr ancha shubhalidir. Talabning o‘shishi doimo «ishtaha»ning ham o‘shishiga olib keladi. Ba’zida qandaydir sabablarga ko‘ra qondirilmagan «ishtaha» tufayli konfliktlar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari shakll darajaga ega bo‘lmagan nodavlat tashkilotlar doirasida xalqlar orasidagi aloqalar xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan hech qanday kafolatlarni bera olmaydi. Xalq diplomatiyasi yadro urushi xavfi

muammosini yo‘qota olmaydi, lekin shu bilan birga odamlar orasidagi o‘zaro munosabatlarini yuqori pog‘onaga ko‘tarib qo‘yadi.

Uchinchi, siyosatsizlik xarakteriga ega bo‘lishga intilgan funksional yondashuv xalqaro tashkilotlar ichidagi g‘oyaviy farqni yenga olmaydi (va yenga olmadi ham). YUNESKO va yana bir qator boshqa tashkilotlar g‘oyaviy tomondan parchalanib ketdilar va o‘zlari faoliyat ko‘rsatib kelayotgan bugungi dunyoning haqiqiy ahvolini namoyon qildilar.

Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan funksional nazariya Yevropa va Atlantika institutlarining faoliyatini tahlil qilishda qo‘llanila boshladi, bu esa mutaxassislarga funksionalizmni nafaqat nazariya, balki amaliyot sifatida ham vujudga kelganligi to‘g‘risida fikr yuritishiga asos bo‘ldi.

2) **Neofunksionalizm.** Neofunksionalizm yo‘nalishining rivojlanishiga amerikalik olimlar Xaas (Haas), Lindberg (Lindberg) va Nay (Nye)lar katta hissa qo‘shganlar.

Neofunksionalizmning ushbu vakillari ishlarining o‘ziga xos tomoni shunda ediki, ularning izlanishlari faqat G‘arbiy Yevropada yoki ayrim olingan bir mintaqa miqyosida kechayotgan jarayonlar bilan cheklangan edi (asosan Yevropa hamjamiyatining rivojlanishi bilan), bu bilan esa ular funksionalistlarning global yondashuvidan farq qilar edilar.

Neofunksionalizmning ikkinchi o‘ziga xos tomoni shunda ediki, unda funksionalizmning eng asosiy kamchiliklaridan biri – xalqaro maydonda ko‘pchilik qarorlarni qabul qilishda siyosatni asos sifatida qaramaslik omilini yengib o‘tishga harakat qilindi. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari shuni ta’kidlashar ediki, subkontinental miqyosda nafaqat ayrim turdagi faoliyat (masalan, ko‘mir va po‘lat ishlab chiqarish sohasidagi boshqaruv) amalga oshiriladi, balki ushbu faoliyat yuzasidan tegishli siyosiy qarorlar ham qabul qilinishi kerak bo‘ladi. Boshqa sohalarni (masalan transport, qishloq xo‘jaligi va hokazo) boshqarib turish uchun qo‘shimcha koordinatsion institutlarning paydo bo‘lishi yangi turdagi Yevropani qurish tomon tashlangan qadamlardan biri bo‘lishi kerak edi. Ushbu jarayonning natijasi sifatida iqtisodiy va siyosiy tomondan integratsiyalangan Yevropa, ya’ni federativ davlat paydo bo‘lishi lozim (Monne).

Yuqorida qayd qilingan strategiya Ernst Xaasning Yevropa ko‘mir va

po‘lat hamjamiyati to‘g‘risidagi ishida tahlil qilingan. Xaas dunyoda kechayotgan mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini tahlil qilarkan, u siyosiy integratsiyaga uning ideal ko‘rinishida ta’rif berishga uringan:

«Bir nechta davlatlarda faoliyat ko‘rsatuvchi siyosiy kuchlar o‘zlarining siyosiy faoliyatini, qarashlarini va istaklarini yangi markaz tomon yo‘naltirishga rozi bo‘ladilar, bu markazning organlari esa o‘zlarining vakillik davlatlariga nisbatan ma’lum bir yurisdiksiyaga ega bo‘ladilar yoki shunday vakolatga da’vogardirlar».

Xaasning fikricha, ushbu «yangi markaz» funksional (soha bo‘yicha) hamkorlikning siyosiy muammolari bilan shug‘ullanmog‘i lozim edi. «Siyosiy kuch» sifatida esa, Xaas davlat miqyosidagi qarorlarni qabul qila oladigan siyosiy partiya va guruhlarining rahbarlari, kasaba uyushma va biznes vakillari, yuqori mansabdor shaxslar va siyosatchilarni bilgan. Siyosiy elita vakillari yangi siyosiy markazni yaratishga ehtiyoj tug‘ilganligini tushungan payti, ular ushbu hamjamiyat a‘zolari ma’lum bir sohada oldiga qo‘yilgan barcha masalalarni to‘la qonli hal qilinishi mumkinligini anglab yetishadi. Uning fikricha, bunga faqat hamjamiyat faoliyatining takomillashuvi va bir sohadan boshqa sohaga «oqib o‘tishi» orqali kengayish hisobiga erishish mumkin bo‘ladi¹.

Oxir oqibatda davlatlar hamjamiyatga (markaziy institutga) barcha asosiy sohalardagi masalalarni yechish vakolatini berib qo‘yishadi. Bu esa har bir ayrim olingan davlatning boshqaruv apparatiga nisbatan ancha katta kuchga ega bo‘lgan yangi markazning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Yevropa integratsiyasi rivojlanishining bunday istiqbollari Yevropa ko‘mir va po‘lat tashkiloti faoliyatining keyingi bosqichlari to‘g‘risida yoki yangi federativ davlatning paydo bo‘lishi haqidagi savollarga javob izlashga majbur qildi.

Xaas shunday xulosaga keldiki, umumiy bozorni kundalik boshqarishga doir sohada davlatlararo institutlarning davlatlarga nisbatan mustaqilligi muqarrardir va hamjamiyatda «davlatlararo institutlarning strukturaviy tuzilishi, o‘tmishdagi boshqa hollarga nisbatan olib qaraganda, federativ arxitekturaga ega bo‘ladi». Lekin shu bilan birga Xaas shuni ta’kidlaydiki, amaliyotda bunday

¹ International Integration: the European and the Universal Process, 1961.

institutlarning rivojlanishi qandaydir gibrid holda kechayapti, ya'ni ularning rivojlanish tendensiyasi federativ ham emas, davlatlararo ham emas. Yuqorida aytilganlarga xulosa qilar ekanmiz, Mitrani va uning izdoshlari xalqaro hamjamiyat tarixini birlashish, federatsiya tuzish tomon harakati sifatida qaraganlar. Neofunksionalistlar uchun bunday harakat ob'ektiv jarayon bo'lib, uni hech bir davlat to'xtatib qola olmaydi deb bilishadi. Lekin shu bilan birga ular jahon federalizmiga bo'lgan yo'l revolyutsiya orqali emas, balki evolyutsiya jarayoni orqali yotadi deb ta'kidlashadi. Dunyoni birlashtirishga qaratilgan bunday jarayonda asosiy rol xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'ladi. Neofunksionalistlar shuni ham tan olishadiki, ba'zi hollarda xalqaro tashkilotlar o'z hukmini davlatlarga ham o'tkazishlari mumkin (masalan, BMT Nizomini yoki Rim shartnomasini imzolash). Shu sababli ular «xalqaro tashkilotlarga vakolat berish asta-sekin va bosqichma-bosqich uzoq muddat davomida olib borilishi kerak» deb hisoblashadi. Neofunksionalistlar shuni ham e'tirof etishadiki, xalqaro tashkilotlar o'z nizomlarini yangidan talqin qilish, strukturasi yaxshilash, byurokратиyani oshirish yoki budjetini ko'paytirish orqali o'z vakolat doirasini kengaytirmoqdalar. Ushbu tendensiyaga bo'lgan qarshilikni a'zo-davlatlar tomonidan yengib o'tish integratsiyaning real yoki abstrakt afzalliklarni namoyon qilish orqali erishish mumkin.

Neofunksionalistlarning fikricha, xalqaro tashkilotlar eng boshidan iqtisodning ayrim sohalaridagi faoliyatning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan mexanizm bo'lish bilan birga, vaqt o'tishi bilan, tinchilik va xavfsizlikni ta'minlashga kafolat bera oladigan siyosiy integratsiyaning lokomotivlariga aylanishi mumkindir.

1965 yilgi Yevropa hamjamiyati doirasidagi katta krizisdan so'ng, neofunksionalistlar nazariyasiga nisbatan bir nechta tanqidiy fikrlar ham bildirildi. Ularning ba'zilarini quyida keltirib o'tamiz:

- 1)neofunksional yondashuv Hamjamiyat rivojlanishini juda sodda va bir chiziqli deb biladi, ya'ni Hamjamiyatni tashkil qiluvchi a'zo- davlatlar va institutlar ichidagi jarayonlar dinamikasi e'tiborga olinmagan;
- 2) millatchilik omili inobatga olinmagan;

3) hamjamiyat boshqa tashqi dunyodan izolyatsiya qilingan deb qaraladi, bunda uning a'zolariga turli yo'nalishlar bo'yicha, shu jumladan, tashqaridan ham ko'rsatilayotgan ta'sir e'tiborga olinmagan;

4) mintaqa integratsiyasidan mustaqil ravishda kechayotgan g'arb jamiyatining transshaklsiya jarayonlari e'tiborga olinmagan.

Neofunksionalistlar o'z opponentlarining tanqidlarini qabul qilib, ularni o'z izlanishlarida e'tiborga olishga harakat qilishdi. Umumiy holda neofunksionalistlarni davlatlar qanday qilib va nima uchun o'z suverenitetlarining bir qismini xalqaro tashkilotlarga berishadi, shuningdek, qanday qilib va nima uchun ular o'z xohishlari bilan birlashishadi, o'z qo'shnilari bilan ittifoq tuzishib, o'z suverenitetlari atributlarining bir qismini yo'qotishadi. Lekin shu bilan birga oralarida chiqadigan nizolarni hal qilish imkoniga ega bo'lishadi degan savollar tashvishga sola boshladi¹.

Bugungi kunda davlatlararo hamkorlik va integratsion jarayonlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan neofunksionalizm yondashuviga nisbatan bildirilayotgan tanqidiy fikrlar quyidagilardan iborat:

- bu yo'nalish o'z qarashlarini asosan Yevropa hamjamiyatlarida konsentratsiyalagan;
- neofunksionalistlar institutsional o'zgarishlarni interpretatsiya qilishda ancha eklektiklangan.

Neofunksionalistlar xalqaro munosabatlarning nodavlat spektrini juda tor qarashgan, ya'ni ular soha prinsipi bo'yicha tuzilgan faqat siyosiy elita va mustaqil guruhlar yetakchilarini bu spektrga kiritishgan.

4) **«Xavfsizlik hamjamiyati» nazariyasi.** Integratsion jarayonlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan «xavfsizlik hamjamiyati» yondashuvi asosini davlatlarning o'zaro tinch yashashi va do'stona munosabatlarni o'rnatishni ta'minlash kontekstida tarixiy voqealarning ketma-ketligini o'rganish tashkil etadi. Ushbu nazariyaning asoschisi K.Doych «o'zaro integratsiyaning yetarli darajasiga erishgan va ma'lum bir birlik tuzish ehtiyojini sezgan davlatlar guruhi» sifatida namoyon bo'ladigan «xavfsizlik hamjamiyati» deb nomlanadigan hamjamiyatni tuzish lozimligi

¹ Haas, M. International organization: An Interdisciplinary Bibliography, Stanford, 1971.

to'g'risidagi tezisni olg'a suradi¹. Karl Doych davlatlararo hamkorlikda xalqlararo munosabatlarga alohida urg'u berarkan, xavfsizlik muammolari yuzasidan bir xil qarashga ega bo'lgan sotsiumlarni yaratish va hamkorligini yo'lga qo'yish («xavfsizlik hamjamiyatlari» - «security communities») dunyoni urushdan xalos qilishi mumkin, degan xulosaga keladi. Ushbu sotsiumlar sifatida Doych shunday odamlar guruhini tushunar ediki, ular har qanday sharoitda ham bir-biri bilan urush qilmaydilar, aksincha, tug'iladigan muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga harakat qiladilar².

Ushbu yo'nalish vakillarining fikriga ko'ra, davlatlararo integratsiya – ko'p vektorli va ko'p aspektli jarayondir, shu sababli u to'g'risida maksimal darajada to'la ma'lumot olish uchun katta to'plamdagi o'rganish uslublari va vositalariga ega bo'lmoq zarurdir. Bu bilan bog'liq ravishda, K.Doych davlatlar o'zaro integratsiya jarayonida qanchalik samaraga erishganini, u yoki bu sohadagi o'zaro hamkorlik qancha tez yo'lga qo'yilishi mumkinligi, ularning bu yo'lda siyosiy faolligini oshirish va shunga o'xshash jarayonlarning natijalarini aniqlash va tahlil qilish uchun ma'lum bir mezonlar tizimini ishlab chiqdi³.

Doych, funksionalistlar fikridan farqli ravishda, integratsiya jarayoni natijasida xalqlar yoki davlatlar yagona tuzilmaga birlashishi majburiy shart emas deb biladi. Tadqiqotchi integratsiyaning ikki variantini ko'rib chiqqan:

- 1) Oldin mustaqil sub'ektlardan iborat bo'lgan, keyinchalik esa, yagona hukumat ostida yagona tuzilmaga birlashgan yaxlit davlat (masalan, AQSh);
- 2) Plyuralistik tuzum. Bunda unga kiruvchi sub'ektlar mustaqil bo'lib qolaveradilar (masalan, AQSh va Kanada).

Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropada kechayotgan integratsion jarayonlarning tahlili, Doychga ikkala turdagi integratsiyani ham amalga oshirish uchun lozim bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlab olishga imkon berdi. Albatta, birinchi turdagi integratsiya yuqori darajadagi jarayon hisoblanib 12 ta shartni

¹ Deutsch K. Political community at the international level: problems of definition and measurement. Princeton, New Jersey: Princeton University, 1953. P. 31.

² Deutsch K. Political Community and the North Atlantic Area, 1957.

³ Deutsch K. Political community at the international level: problems of definition and measurement. Princeton, New Jersey: Princeton University, 1953. P. 37—62.

talab qilsa, «plyuralistik integratsiya» faqat 3 ta shartning bajarilishini talab qiladi. Uning fikricha, ushbu uchta shart quyidagilardan iborat:

- siyosiy qarorlarni qabul qilishda barcha davlatlar uchun tegishli bo‘lgan asosiy qadriyatlarning o‘zaro mutanosibligi;
 - integratsiya jarayonida ishtirok etuvchi siyosiy partiyalar va hukumatlar tez va adekvat ravishda o‘zaro ehtiyojlarini qondirib bilishi;
 - o‘zaro xatti-harakatlarni oldindan prognoz qila olish qobiliyati.
- Davlatlararo hamkorlik paytida, ayniqsa, integratsiya jarayonida, Doych turli davlatlar nomidan ish ko‘ruvchi siyosiy partiya va guruhlarining, shuningdek ayrim fuqarolarning o‘zaro muloqotini juda muhim deb bilgan.

Umuman olib qaraganda, «xavfsizlik hamjamiyati» nazariyasi, eng avvalo, ayrim olingan shaxslar, ijtimoiy guruhlar, elitalar, madaniy birliklar va shunga o‘xshash boshqa sub’ektlarning siyosiy integratsiya dinamikasini tahlil qiladi. Integratsiya odamlar tomonidan boshqariladigan va ma’lum bir umumiylikka intiluvchi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi¹. Aynan «xavfsizlik hamjamiyatini» tuzish integratsiya jarayonining oxirgi mahsuloti deb qaraladi.

Doych bu jarayonda ataylab xalqaro tashkilotlarning rolini ajratib ko‘rsatmagan, lekin uning ishidan muhim xulosalarni chiqarib olish mumkin. Birinchidan, «plyuralistik integratsiya» natijasida turli xil davlat va nodavlat tashkilotlar paydo bo‘lishi mumkin (masalan, NATO). Ikkinchidan, yaratilayotgan xalqaro tashkilotlar jamiyatlar o‘rtasida u yoki bu darajadagi tartibga solingan kommunikatsiya shaklida bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, yuqori darajadagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi, shuningdek, davlatlarni bir-birini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Bularning natijasida esa «xavfsizlik hamjamiyatini» shakllanishiga olib keladi.

Yuqorida bayon etilganlarga xulosa qilarkanmiz, shuni e’tirof etish kerakki, kechayotgan integratsion jarayonlarni tahlil qilishda bu yo‘nalish alohida yondashuv bo‘lib shakllangan bo‘lsa ham, ba’zi mutaxassislarning fikricha, sotsiologik tahlil bilan chambarchas bog‘liqdir².

¹Deutsch K. The growth of Nations: some recurrent patterns of political and social integration // World Politics. 1953. Vol. 5, № 2. P. 169.

²De Vree J. Political integration: the formation of theory and its problems. The Hague: Mouton, 1972. P. 168.

5) **Iqtisodiy-nazariy yondashuv.** Hozirgi paytda integratsion jarayonlarni iqtisodiy bilimlar doirasida o'rganish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. To'g'ri, XX asrning 70-yillarigacha davlatlararo munosabatlarning «integratsiya» yoki «ittifoq tuzish» kabi turlari yetarli darajada ijobiy iqtisodiy natijalarni berishi mumkinligi bir muncha

ishonchsizlikni tug'dirar edi³. Shunga qaramasdan, keyingi paytda dunyoda iqtisodiy asosdagi turli xil integratsion birlashmalarning paydo bo'lishi, shuningdek Yevropa Hamjamiyati iqtisodiy siyosatining rivojlanishi, ayniqsa, Yel doirasida yagona bozor, keyinchalik esa iqtisodiy va valyuta ittifoqlarining tuzilishi integratsion jarayonlarni o'rganishda iqtisodiy-nazariy yondashuvning rivojlanishiga kuchli turtki bo'lib xizmat qildi.

¹De Vree J. Political integration: the formation of theory and its problems. The Hague: Mouton, 1972. P. 168.

²Tovias A. A survey of the theory of economic integration // European integration: theories and approaches / Ed. by H.Michelmann, P. Soldatos. Lanham, MD: University Press of America, 1994. P. 57.

Ushbu yondashuvning vakillari ta'kidlashicha, integratsion birlashmalarning paydo bo'lishi asosida ishtirok etuvchi davlatlar va birlashmalarning aynan iqtisodiy manfaatlari yotadi. Ularning fikriga ko'ra, bojxona ittifoqini tuzish istagi umumiy mintaqaviy integratsiya siyosatining paydo bo'lishiga olib keladi, yagona bojxona va boshqa tariflarning ishlab chiqilishi, shuningdek ularni doimo o'zgartirib turish ehtiyojining mavjudligi esa umumiy savdo siyosatining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi¹. Bundan tashqari, cheklangan hudud doirasida nafaqat Yevropaning eng rivojlangan davlatlari, balki ayrim olingan hech bir davlat AQSh va Yaponiya bilan raqobatlasha olmaydi. Bu ma'noda, aynan mintaqaviy birlashmalar o'z kuchini va keng imkoniyatlarini ko'rsata oldilar. Iqtisodiy integratsiya g'oyasi juda qisqa vaqt mobaynida G'arbiy Yevropa davlatlarining ko'pgina sohasini qamrab oldi: qishloq xo'jaligi, energetika, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari va boshqalar. Hozirgi kunga kelib umumiy integratsiya dinamikasi davlatlararo iqtisodiy integratsiya bosqichlarining amalga oshishi bilan bevosita uyg'unlashtiriladigan bo'ldi. Ushbu bosqichlar qatorida erkin savdo zonasi, bojxona ittifoqi, yagona ichki bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqlarining tuzilishini ajratib ko'rsatishimiz mumkin².

An'anaviy davlatlararo munosabatlarga turli xil iqtisodiy kelishuvlarning ta'siri, shuningdek integratsion jarayonlarning mexanizmlarini takomillashtirish muammolari iqtisodiy-nazariy yondashuv doirasida alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Integratsion jarayon natijasida olinadigan nafaqat foyda, balki vujudga keladigan ma'lum bir zararlarni ishtirokchi davlatlar orasida oqilona taqsimlanishi muammolari markaziy savollardan biri bo'lib qoldi. Ushbu muammoning murakkab tomoni shundaki, davlatlararo integratsiya ijobiy jarayon bo'lib qaralgani bilan, ushbu jarayon natijasida rivojlangan davlatlar bir muncha zarar ko'rishadi, kamroq rivojlanganlari esa bunday yaqinlashishdan ular hisobiga ma'lum bir yutuqlarga erishadilar. Bunday hol esa, boshqa ishtirokchilarga nisbatan bir muncha ko'proq iqtisodiy rivojlanish darajasiga erishgan davlatlarni integratsiya jarayonlarida ishtirok etishdan saqlab turadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu yondashuv vakillari orasida integratsiya jarayoni natijalari

¹ Tovias A. A survey of the theory of economic integration // European integration: theories and approaches / Ed. by H.Michelmann, P. Soldatos. Lanham, MD: University Press of America, 1994. P. 57.

² Molle W. The economics of European integration: theory, practice, policy. Aldershot: Dartmouth, 1994. P. 28.

to'g'risida yagona bir to'xtamga kelangani yo'q. Ulardan ba'zilari mintaqaviy integratsiyani erkin savdoni yaratish bilan cheklanib qolishi mumkin deb hisoblaydilar. Shu sababli integratsiya tovarlar va xizmatlarni erkin aylanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni yo'qotishga qaratilgan jarayon bo'lmog'i lozim deb biladilar. Boshqalar esa, turli sohalarda integratsiya jarayonini faollashtirish tarafdorlari hisoblanishadi. Ularning fikricha, yagona bozorni tashkil qilish – barcha ishtirokchi davlatlarning umumiy iqtisodiy ahvollarini yaxshilashi mumkin bo'lgan yagona yo'l deb biladilar.

Integratsiyani o'rganish bilan shug'ullanuvchi yana bir guruh iqtisodchilar, ushbu jarayonning siyosiy va institutsional omillarini chetda qoldirib, asosiy e'tiborni tovar va xizmatlar bozoriga qaratishadi. Ularni, eng avvalo, ushbu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari qiziqtiradi. Bu guruh tadqiqotchilarining fikricha, integratsiya fenomenini iqtisodiy tomondan tushuntirib berish ikkita asosiy nazariyaga borib taqaladi: bojxona ittifoqi va muqobil valyuta zonasi nazariyalari.

Bojxona ittifoqi nazariyasi, tovarlar bozorini o'rganib, savdoni rivojlantirish va uni diversifikatsiyalash nuqtai nazaridan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni ochib berishga harakat qiladi.

Muqobil valyuta zonasi nazariyasi boshqacha predmetga egadir. U shunday sharoitlarni o'rganadiki, bunda yagona valyuta zonasini yaratish iqtisodiy tomondan foydali bo'lishi kerak bo'ladi. Ushbu nazariyaning asosiy kategoriyalari pul, tovarlar bozori va ishlab chiqarish omillaridir.

Bojxona ittifoqi va muqobil valyuta zonasi nazariyalari u yoki bu iqtisodiy mintaqada doirasidagi siyosatning o'zgarishini tushuntirib bera olmaydi. Bu ma'noda ular statikdirlar.

Iqtisodchilar fikricha, xalqaro iqtisodiy integratsiya – bu chuqur o'zaro bog'liqlik va milliy xo'jaliklar orasidagi ish taqsimotining rivojlanishi, har xil shakldagi va turli darajadagi ishlab chiqarish strukturalarining hamkorligi asosida davlatlarning xo'jalik-siyosiy birlashuv jarayonidir.

Mikrodarajada bu jarayon (o'zaro iqtisodiy kelishuvlar tizimini yaratish, chet davlatlarda filiallarni yaratish va hokazolar orqali) bir-biriga yaqin joylashgan davlatlardagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining kapitali hamkorliklari orqali olib

boriladi. Davlatlararo darajada integratsiya davlatlararo iqtisodiy birlashmalarni yaratish va milliy siyosatlarining o‘zaro kelishuvlari asosida amalga oshiriladi¹.

Ushbu yondashuv vakillarining fikricha, iqtisodiy integratsiyaning eng muhim omillari quyidagilardir:

- xo‘jalik yuritishning baynalminallashuvining o‘sishi;
- xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi;
- ilmiy-texnik revolyutsiyaning ta‘siri;
- milliy iqtisodlarni ochiqligining oshishi.

Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya bir nechta shaklga ega bo‘lib, ularni murakkablashish tartibida sanab o‘tamiz:

Eng oddiyisi – bu erkin savdo zonasidir. Bu holda ishtirokchi davlatlar orasida savdo chegaralari olib tashlanadi.

Bojxona ittifoqi savdo chegaralari olib tashlanishi bilan birga, yagona tashqi savdo tariflarini o‘rnatish va uchinchi davlatlarga nisbatan tashqi savdo siyosatini kelishib yuritishni nazarda tutadi.

Umumiy bozor uning ishtirokchilariga o‘zaro erkin savdo va yagona tashqi tariflar bilan bir qatorda, kapital va ishchi kuchining erkin harakati, shuningdek iqtisodiy siyosatning o‘zaro kelishuvini ham ta‘minlab beradi.

Valyuta ittifoqi yuqorida ko‘rsatilgan barcha shakllarni o‘z ichiga oladi va barcha ishtirokchilar uchun umumiy bo‘lgan iqtisodiy va valyuta-moliya siyosatini olib borishni nazarda tutadi.

6) **Alternativ yondashuvlar.** Integratsion jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilish uslublari faqat yuqorida qayd qilinganlar bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, neofunksionalizmga alternativ bo‘lgan yo‘nalish ham mavjud. Ushbu yondashuv vakillari, integratsion jarayonlarni amalga oshirishda asosiy rolni davlatlararo institutlar emas, balki tegishli davlatlarning rahbarlari (intergovernmentalism) o‘ynashini e‘tirof etadilar. Ularning fikricha, hukumat vakillari davlatlarining suverenitetlarini har qanday yo‘l bilan himoya qilish bilan birga, integratsiya jarayonidagi har bir qadamni o‘ta ehtiyotkorlik bilan qo‘yishadi.

¹ Спиридонов И.А. Мировая экономика. М. : Инфра-М, 1999. С.66

Yirik davlatlar oldindan kelishilgan integratsiya jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday prinsipial o'zgarishga nisbatan deyarli veto qo'llash huquqiga egadirlar. Odatda bunda kichikroq davlatlar integratsiya jarayonida ishtirok etuvchi tegishli yetakchi davlatlar hisobidan kompensatsiya olishadi. Integratsion jarayon doirasida ishtirok etuvchi davlatlar orasida yetakchilarni belgilash, har bir ishtirokchining keng ma'nodagi qudrat (iqtisodiy, harbiy va hokazo) salohiyatini va davlatlararo hamkorlikning siyosiy tarkibini aniqlashtirish – ushbu yo'nalishni neofunksionalizmdan ancha ustun qilib qo'yadi. Albatta, bu yo'nalish ham mukammal emas. Uning kamchiliklarini quyidagilar deb ko'rsatishimiz mumkin:

- qabul qilingan qarorlar avtomatik tarzda bajariladi deb hisoblanib, faqat tegishli davlatlarning qarorlari bilan chegaralanib qolinadi. Integratsiyaning ijobiy tomonlari yirik davlatlar manfaatlarining kelishuvi natijasi sifatida qaraladi, qolganlari esa integratsiya ob'ekti deb qabul qilinadi;

- yirik davlatlarning muhim qarorlariga sabab bo'lgan turli xil ijtimoiy jarayonlar e'tiborga olinmaydi.

Bundan tashqari, xalqaro munosabatlar doirasida integratsiya muammolari, neofunksionalistlar yondashuvidan bir muncha farqli ravishda, yana bir nuqtai nazardan qaraladi. Bunda asosiy e'tibor hamjamiyatni tashkil etuvchi davlatlarning siyosiy elitalariga beriladi.

Xullas, yuqorida bildirilgan fikrlar asosida quyidagi fikrlarni aytish mumkin. Bugungi kunda integratsion jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish tizimida yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlar o'z o'rnini topgan. Bunda, ularning turlicha bo'lishi ajablanarli hol emas, balki qonuniyatdir. Davlatlarning integratsion jarayonda ishtirok etishdagi o'zaro munosabatlarini turli pozitsiya va har xil nuqtai nazardan qarash va tahlil qilish zaruriy holdir. Albatta, har bir yo'nalish o'zining spetsifikasiga va individualligiga ega. Bu esa, ularning har birini qaysidir jihatdan boshqa yo'nalishlardan ma'lum bir darajada ustun qilib qo'yadi. Shunday ekan, mavjud bo'lgan barcha yondashuvlar yashab qolish va rivojlanish huquqiga ega.

1.2. Integratsiya muammolarining zamonaviy tendensiyalari

Umuman XX asr oxiri dunyo maydonida keng ko‘lamdagi tub siyosiy o‘zgarishlar yuz berganligi bilan ajralib turadi. Buni biz 1980-yillar oxiri 1990-yillar boshidagi demokratiyaning yangi to‘lqini, turli darajadagi nizolar orqali ro‘y bergan dezintegratsiya jarayonlarida kuzatishimiz mumkin. Sobiq Sovet Ittifoqi, sobiq Yugoslaviyaning parchalanishi va Chexoslovakiyaning ikki mustaqil davlatga bo‘linishi va h.k. Lekin shu bilan bir qatorda, integratsiya jarayonlarining ham chuqurlasha borganligini qayd etish lozim, bunga misol sifatida ikki nemis

davlatining birlashishini (1990 y.) va Yevropa Ittifoqining vujudga kelishini keltirish mumkin.

Integratsiya jarayonlari ko‘plab xalqaro hukumatlararo va nohukumatlararo tashkilotlarning vujudga kelishi va ularda tobora ko‘proq davlatlarning ishtirok etishlarida ham namoyon bo‘lmoqda. Yetakchi mamlakatlarning ko‘pchiligi bir yo‘la 100 dan ortiq tashkilotlarda muntazam qatnashib kelishadi. Masalan, Daniya – 164, Fransiya – 155, Buyuk Britaniya – 140, AQSh – 122 xalqaro tashkilot faoliyatida muntazam ishtirok etmoqdalar¹. Shuningdek, davlatlarning ichidagi ayrim mintaqalarning mustaqil faoliyatlari ham tobora ko‘proq sezila borayapti, ular endi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda, balki siyosiy muammolarni yechishda ham faol ishtirok etmoqdalar (ayniqsa, federatsiya tuzilishidagi davlatlarda). Xalqaro tashkilotlar ham o‘z faolligini oshirganligini esa NATOning Kosovo nizosini hal qilishda tutgan mavqeida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Hozirgi kunda shunday bir holat yuzaga keldiki, endi davlatlar bir tomondan xalqaro tashkilotlar bilan, ikkinchi tomondan, o‘z tarkibidagi ayrim mintaqalar (ko‘proq federatsiya shaklidagi davlatlar) bilan ham hisoblashishga majbur bo‘lishayapti. Bu esa asrlar bo‘yi daxlsiz bo‘lib kelgan davlat suvereniteti tamoyilining yemirilayotganidan dalolat bermoqda. Agar ilgari davlat tarkibidagi mintaqalar faqatgina ichki siyosiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazishga intilgan va xalqaro tashkilotlar esa faqat tashqi siyosat sohasidagi masalalar bo‘yicha ta’sir etishga intilish bilan cheklangan bo‘lsalar, endilikda xalqaro tashkilotlar nizolarni hal etish, inson huquqlari rioya qilinishi, davlatning moliyaviy siyosatini belgilash kabi ichki siyosat masalalariga tobora faol aralasha boshlashdi, davlat tarkibidagi mintaqalar esa tashqi siyosiy faoliyatga, ayrim hollarda bu borada markaziy hukumat bilan tengma-teng faoliyat ko‘rsatishga intilmoqda. Bunday o‘zgarishlarning kelib chiqish sabablari nimada degan savol tug‘ilishi tabiiy. Hozirgi paytda ko‘pchilik tadqiqotchilar orasida dunyo rivojlanishining siyosiy tendensiyalari to‘g‘risida munozaralar bormoqda. Ayrim tadqiqotchilar ko‘proq ahamiyatga ega deya quyidagi ikki tendensiyani ajratib ko‘rsatishmoqda:

¹ Гаджиев К.С. Введение в геополитику. Изд. 2-е, доп. и перераб.: Учебник для вузов. М.: Логос, 2000. С.141.

-zamonaviy dunyoning globallashuvi;

-dunyo maydonida nohukumat va hukumatlararo aktorlar soni va rolining ortib borishi¹.

Har ikki tendensiya bir-biriga bog‘liq va bir-birini taqozo etadi, lekin baribir nisbatan mustaqil harakatlanadi. Qolgan barcha tendensiyalar esa ulardan kelib chiqadi. Misol uchun, ichki siyosiy hayot hamda xalqaro muhitning demokratiyalashuvi bir tomondan axborot va aloqa vositalarining globallashuvi tufayli bo‘lsa, ikkinchi tomondan siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish jarayonida nohukumat ishtirokchilarning roli ortib borayotganligi sababiga ko‘ra mumkin bo‘ldi. Bu haqida rus siyosatshunosi P.A.Sigankov ham shunga yaqin fikr bildiradi².

Globalashuv jarayoni zamonaviy dunyoning eng ko‘p muhokama qilinadigan va lekin eng kam o‘rganilgan tendensiyalaridan biridir. Globalashuv deganda nimaning tushunilishi va uning qanday jihatlarni qamrab olishi hamda globalashuv jahonning siyosiy rivojlanishida qanchalik universal va keng qamrovli tendensiya ekanligi haqida turlicha yondoshuvlar mavjud³. Shunga qaramasdan hozirgi kunda ko‘pchilik tadqiqotchilar zamonaviy globalashuv jarayoni axborot va aloqa vositalarining rivojlanishdagi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganligi bilan bog‘liqdir, degan fikrga e‘tiroz bildirishmaydi. Shu borada «Nyu-York Tayms» gazetasi siyosiy sharhlovchisi T.L.Fridmanning bildirgan mulohazasi e‘tiborga molik, uning fikricha, «agarda sovuq urush davrida tomonlarning necha dona yadro quroliga ega ekanligi asosiy masala bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda kompyuterlar harakat tezligining qandayligi asosiy masala bo‘lib qoldi»⁴. Yoki bu boradagi boshqa fikrlar «er yuzidagi barcha narsaning va barcha kishilarning bir-biriga bog‘liqligi, «sayyoraviylik»ning vujudga kelishi»⁵, «globalashuv, deganda biz dunyoning kapitallar, tovarlar, xizmatlar hech qanday to‘siqlarsiz bir joydan ikkinchi joyga ko‘cha oladigan, g‘oyalar erkin tarqaluvchi

¹ Кулагин В.М. Формирование новой системы международных отношений // Современные международные отношения. Под ред. А.В. Торкунова. М.: МГИМО, 1998. С. 221- 236;

² Цыганков П.А. Глобальные политические тенденции и социология международных отношений // Международные отношения: социологические подходы / Под ред. проф. П.А. Цыганкова. М.: Гардарика, 1998. С. 17-47.

³ Лебедева М.М. Мировая политика: проблемы и тенденции развития. Мировая политика и международные отношения на пороге третьего тысячелетия/ Под ред. М.М. Лебедевой. М.: МОНФ, 2000. С. 23.

⁴ Friedman Th.L. The Lexus and the Olive Tree: Understanding Globalization. N.Y.: Farrar Straus Giroux, 1999

⁵ Подберезский И.В. Вызовы глобализации. enternet (ipodberezsky@mail.ru) 2002

va ularning tashuvchilari erkin harakatlanadigan yagona maydonga aylanishini tushunamiz»¹.

Integratsiya jarayonlari ham birinchi navbatda globallashuv oqibatida yuz bermoqda. G'arbiy Yevropadagi integratsiya jarayonlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Chunki u yerda ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda integratsiya jarayonlari dastlab iqtisodiy sohani qamrab olib (masalan, Ko'mir va Po'lat bo'yicha shartnoma), keyinchalik boshqa sohalarga ham keng tarqaldi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, globallashuv dastlab iqtisodiy sohada boshlangan bo'lsada, keyinchalik uning doirasidan tashqariga chiqib ketdi va bugungi kunga kelib dunyoviy rivojlanishning siyosiy dominantiga aylandi. U jahonning turli mintaqalariga u yoki bu darajada tarqaldi hamda ularning birini markazda joylashtirib boshqasini chekkaroqqa surib qo'ydi va shu bilan yangi qarama-qarshiliklarga yo'l ochib berdi.

Umuman globallashuv bu o'ta murakkab hamda notekis jarayon bo'lib nouyg'unlikni va dunyoviy tamaddunda yangi muammolarni keltirib chiqardi. Globallashuv davlatlararo chegaralarni o'ziga xos ma'noda yo'qqa chiqarib, nodavlat aktorlar transmilliy korporatsiyalar (TMK), turli xil nohukumat tashkilotlari va boshqalarga xalqaro maydonga chiqishlariga yo'l ochib berdi. Lekin shu bilan bir vaqtda ushbu aktorlarning faoliyati faqatgina globallashuv jarayonlari bilangina bog'liq emas. Ba'zi olimlar fikricha, «Butun dunyo davlatini barpo qilish uchun alohida davlatlarning suverenitetini cheklash zarur bo'ladi. Hozirgi kunda butun dunyoda ana shu jarayon bormoqda. Asta-sekin hokimiyat TMK va xalqaro tashkilotlarga o'tib bormoqda»². Hozirgi paytda ular xalqaro munosabatlarning asosiy aktarlari bo'lgan davlatlardan son jihatdan katta ustunlikka egalar. Taqqoslaydigan bo'lsak, bugungi kunda davlatlar soni 200 atrofida, hukumatlararo tashkilotlar soni 250 atrofida, nohukumat tashkilotlar soni esa 30000 ga yaqin. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kelajakda davlatlar o'z o'rnini asta-sekin nodavlat sub'ektlarga bo'shatib beradi.

Lekin hozirgi kundagi real voqelikdan kelib chiqadigan bo'lsak, xalqaro munosabatlarda aynan davlatlar manfaatlari ustunlik qilayotganligini kuzatish

¹ Володин А.Г., Широков Г.К. глобализация; истоки, тенденции, перспективы. www. gambler.ru. 2002.

² Медведева И., Шишова Т. «Что такое глобализация и ее последствия для России». www. gambler.ru 2001.

mumkin bo'лади. Manfaatlarning mavjud ekan, ularni himoya qilish lozim, zero barchaning manfaati aynan bir vaqtda va bir masalada bir xilda bo'lishi kamdan kam uchraydi. Bundan esa biron bir davlatning biror bir masalada manfaatdorligining oshishi boshqa birining manfaatdorligining kamayishiga olib keladi. Shunday ekan davlatlar o'rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligi davom etadi.

Aslini olganda davlatlarning xalqaro maydondagi harakati ham o'z manfaatlari yuzasidan qandaydir bir maqsadni amalga oshirish ehtiyoji bilan bog'liq¹. Shu o'rinda hozirgi paytda eng qiziqarli mavzulardan biri hisoblanadigan yangidan shakllanayotgan dunyo tartiboti yoki xalqaro tartibot qanday ko'rinishga ega bo'lishi masalasiga ham to'xtalib o'tsak. Zero, kelajakda jahon siyosatining qaysi yo'nalishda rivojlanishi ko'p jihatdan xalqaro munosabatlarda vujudga keladigan tartibotning qanday ko'rinish olishiga ham bog'liq. Xalqaro tartibot tushunchasiga aniqlik kiritish uchun ijtimoiy yoki jamoat tartibotini ifodalovchi tushunchaga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Jamoat tartiboti bu ijtimoiy hayotning, bir ijtimoiy birlikning boshqa bir birliklar ustidan har qanday hokimiyatini inkor etuvchi, shaxsning hech qanday rahbarlikka bo'ysunmasligi va cheklanmagan erkinligini targ'ib qiluvchi anarxiyaga qarama-qarshi tarzda tashkil qilinishidir. Boshqacha aytganda, jamoat tartiboti bu jamoa hayotining tashkil qilinishi hamda uning ma'lum bir me'yorlar va umumiy qadriyatlar asosida tartibga solinishidir.

Xalqaro tartibot tushunchasi xalqaro maydonda harakat qiluvchi turli xil jamoatchilik sub'ektlari (aktorlari) yig'indisidan tashkil topgan global ijtimoiy jamoaga tegishlidir. Markaziy hokimiyatning yo'qligi, bir-birlariga mos kelmaydigan qadriyatlarning turli-tumanligi bilan va shu bilan bir vaqtda xalqaro munosabatlar ishtirokchilari xatti-harakatlarining qonuniy yoki noqonuniyligini aniqlovchi oliy organning yo'qligi bilan xarakterlanuvchi xalqaro munosabatlar sohasida jamoat tartiboti mumkinmi degan savol tug'iladi. Bu savolga javob berishda shuni yodga olish lozimki, xalqaro munosabatlarning ilk davrlaridan boshlab insoniyat ularni ongli ravishda tartibga solib turishga intilgan, chunki

¹ Гаджиев К.С. Введение в геополитику. Изд. 2-е, доп. и перераб.: Учебник для вузов. М.: Логос, 2000. С.123-127.

uning asosida ishtirokchilarning xavfsizlikka, hayot kechirishga bo'lgan umumiy ehtiyojlari yotgan. Xalqaro munosabatlar rivojlana borgan sari ushbu intilishlar xalqaro huquqni rivojlantirish, xalqaro tashkilotlar va muassasalarni tashkil qilish va ularni mustahkamlash, xalqaro hayotni barqarorlashtirishda ularning rolini oshirishda va, nihoyat asta-sekin yaxlit global xalqaro tizimni shakllantirishda o'z aksini topdi.

Shunday qilib, xalqaro tartibot bu xalqaro (avvalo, davlatlararo) munosabatlarning davlatlar va boshqa institutlarning asosiy ehtiyojlarini qondirishi, ularning mavjudligi, xavfsizligi va rivojlanishga sharoitlarni yaratib berishi lozim bo'lgan qurilmasidir. Xalqaro munosabatlar tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida

xalqaro tartibotning barcha o'lchamlari bo'yicha uni saqlab turishning asosiy vositasi sifatida kuch, eng avvalo, harbiy kuch qatnashib kelgan. Bunday holat faqatgina o'tgan asrning so'nggi o'n yilligida biroz o'zgarib boshladi. Bu haqida so'z yuritish uchun, avvalo, xalqaro tartibotning tarixiy turlariga oydinlik kiritib olish zarur.

Xalqaro munosabatlar haqidagi fanlarda zamonaviy xalqaro tartibot va davlatlararo munosabatlarning zamonaviy tizimi 1648 yildagi Vestfal tinchlik shartnomasidan boshlanadi degan fikr ustunlik qiladi¹. Xuddi shu vaqtdan boshlab barcha joyda milliy davlat jamiyat siyosiy tashkilotining bosh shakli sifatida va millat (ya'ni davlat) suvereniteti tamoyili esa xalqaro munosabatlarda yetakchi tamoyil sifatida o'z tasdig'ini topadi.

Bu tizim o'z mohiyatiga ko'ra suverenitet va umumiy manfaatlar tamoyillarining kelishuvini bildiruvchi siyosiy muvozanatga asoslangan edi.

1815 yilgi Vena kongressiga qadar davom etdi va bu kongressda qonuniylik tamoyili, ya'ni monarxiya tuzumlarini tiklash va unga xavf soluvchi kuchlarga qarshi birgalikda kurashishning qonuniy ekanligi ta'kidlandi. Ushbu tamoyilga ko'ra, biron bir mamlakatda monarxiya tuzumiga qarshi harakatlar ko'tariladigan bo'lsa, boshqa davlatlar unga bu harakatlarni bostirish uchun yordam berishlari shart qilib qo'yilgan va shu maqsadda eng yirik monarxiya davlatlari Rossiya, Avstriya-Vengriya va Prussiyani o'z ichiga olgan «Muqaddas Ittifoq» tuzilgan(1815) edi². Lekin bu tartibot uzoqqa bormadi va XIX asr o'rtalarida «Muqaddas Ittifoq» tarqalib ketib, uning o'rnida keyinroq bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan Uchlar Ittifoqi(1882) va Antantadan(1907) iborat harbiy-siyosiy bloklar vujudga keldi. Ular o'rtasida ziddiyatlarning kuchayib borishi esa oxir-oqibatda I jahon urushiga sabab bo'ldi.

Birinchi jahon urushidan keyingi davrdagi xalqaro siyosat rivojidadagi o'ziga xos jihat bu ilk bor davlatlararo xalqaro universal tashkilot yaratishga urinish va uning natijasida Millatlar Ligasining tuzilishi bo'ldi (1919). Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda yuzaga kelgan tartibot esa ikki jihati bilan oldingilaridan farq qiladi:

¹ Оскар Егер. Всемирная история. Т3. СПб ООО «Издательство Полигон», 1999. С-342-347.

² Гаджиев К.С. Введение в геополитику. Изд. 2-е, доп. и перераб.: Учебник для вузов. М.: Логос, 2000. С.136.

birinchidan, dunyo bir-biri bilan «sovuq urush» holatida bo‘lgan va birbirlariga xavf solib turgan ikki siyosiy-iqtisodiy tizimga bo‘lingan; ikkinchidan, BMT va uning maxsus muassasalarining tashkil topishi va xalqaro munosabatlarni tartibga solish va xalqaro huquqni mukammallashtirishga qaratilgan harakatlarning kuchayishi yuz bergan edi.

Umuman aytganda, tarixda ko‘rish mumkin bo‘lgan xalqaro tartibot turlari ikki mumtoz model orasida bo‘ladi: «urush holati», «ishonchsiz tinchlik» yoki «rioya qilinmaydigan tartibot» modellari.

Birinchi modelga ko‘ra, xalqaro munosabatlarning mohiyati urush va unga tayyorgarlik hisoblanadi, ikkinchi modelga binoan esa, xalqaro munosabatlar eng kam miqdordagi tartibotni bo‘lishini kafolatlashga qodir bo‘lgan kuchlar mavjud muhit sifatida qaraladi. Har ikkala model ham o‘z davriga xos voqeliklarni o‘zida aks ettiradi, ma’lum ma’noda esa hozirgi kunga ham mos keladi.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati rivojlanishida ikki qutbga asoslangan tartibot o‘z umrini yashab bo‘lgan va keyingi dunyoviy tartibot qanday ko‘rinishga ega bo‘lishi haqida yakdil bir to‘xtamga kelinmaganligini qayd etish mumkin. Ba’zi tadqiqotchilar tomonidan dunyo bir qutbli tartibot sari rivojlanmoqda degan fikr ilgari surilayotgan bo‘lsa, boshqalar ko‘p qutbli dunyo tartibotiga qarab borilmoqda degan fikrga egalar, yana ba’zilar umuman boshqacha kelajakni bashorat qilishmoqda.

Sovuq urush davridan keyingi dunyoning qanday yo‘sinda rivojlanayotganligi va kelajakda qanday ko‘rinish olishi yuzasidan tadqiqotchilar o‘rtasida turlicha fikrlarning mavjudligini quyidagi mualliflarga murojaat qilganda yaqqol guvohi bo‘lamiz. Ulardan biri rus geosiyosatchisi A.Duginning fikriga ko‘ra, «hozirgi paytda dunyoda borayotgan globallashuv jarayonida biz amerikacha jamiyatdan nusxa olingan tsivilizatsion modelni boshqa davlatlarga ularning xohishidan qat’iy nazar tiqishtirish va o‘rnatishni ko‘rmoqdamiz»¹.

Yana bir rus olimi A.S.Panarin mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi oqibatida boshlanib ketgan birinchi jahon urushi boshlab bergan duyoviy miqyosdagi urush hamon davom etmoqda, birinchi jahon urushi ikkinchi

¹ Дугин А. Г «Философия глобализма» доклад на Международной Конференции Глобализм и глобальная безопасность Москва, 2001. enternet

jahon urushiga, ikkinchi jahon urushi uchinchi jahon urushiga, ya'ni «sovuq urush» ga yo'l ochdi, endi esa «sovuq urush»ning tugashi yangi dunyoviy urushga zamin hozirlamoqda degan fikrni beradi. Bunga dalil sifatida esa xuddi oldingilarida bo'lganidek, «sovuq urush»ning tugashi ham xalqaro maydondagi ziddiyatlarga chek qo'yish o'rniga ularni yanada kuchaytirdi degan fikrni keltiradi. Uning mulohazasiga ko'ra, endilikdagi qarama-qarshilik AQSh boshchiligidagi g'arb dunyosi va Rossiya, Hindiston, Arab sharqi va ehtimol Xitoydan iborat ittifoq o'rtasida kechadi. Boshqacha aytganda, yangi ikki qutbli dunyo tartiboti vujudga keladi¹. Boshqa fikrlarga ko'ra, konfliktlardan keyingi yangi dunyoning shakllanish jarayoni ikki yo'ldan borishi mumkin:

birinchisi, yaxshi boshqarilmaydigan, turli aktorlar o'rtasidagi kelishmovchilik va tushunmovchiliklar yo'li, bu yo'ldan borish oqibatida insoniyat yaxshi holatda o'rta asrlarni eslatuvchi dunyoga ega bo'ladi, yomon holatda esa bizni dunyoviy halokat kutadi;

ikkinchisi, krizislarni boshqarish, yangicha dunyoviy tuzilmalarni shakllantira borish².

AQShlik olim F.Fukuyama «Tarix yakuni» asarida butun dunyoda qutblararo qarama-qarshilik barham topib, dunyo endi yagona qadriyatlar bo'yicha rivojlanadi, bu qadriyatlar sifatida g'arbonsa qadriyatlar qabul qilinadi degan g'oyani ilgari surgan. Boshqa bir mashhur olim S.Xantington esa dunyoning kelajagi turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi to'qnashuvlarning kelib chiqishi bilan xarakterlanishini bashorat qilib, uning g'oyasiga qaysidir ma'noda qarshi fikr bildirgan. Bir-biriga qarshi turuvchi 6 asosiy sivilizatsiyalarga hinduizm, islom, yapon, pravoslav, xitoy va g'arb sivilizatsiyalarini, bularga qo'shimcha qilib, esa Afrika va Lotin Amerikasi sivilizatsiyalarini ham kiritgan³.

Keyingi paytlarda tez-tez o'zini namoyon etayotgan ba'zi jarayonlar, ya'ni turli sivilizatsiya vakillari orasidagi o'zligini anglash jarayonlarida, eng achinarlisi, ulardan ayrimlari o'rtasida o'zlarining hozirgi paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy nochor holatlariga boshqa sivilizatsiyalarni aybdor deb bilishlari va ularga qarshi

¹ Панарин А.С. Политология. М.: «ПРОСПЕКТ», 1999.-448с. С.412-435.

² Лебедева М.М. Мировая политика: проблемы и тенденции развития. Мировая политика и международные отношения на пороге третьего тысячелетия / Под ред. М.М. Лебедевой. М.: МОНФ, 2000. С. 44.

³ Хантингтон. С. Столкновение цивилизаций// Политические исследования. 1994. № 1.

kurashish lozimligi to'g'risidagi g'oyalarni targ'ib qiluvchilar ham ko'plab topilmoqda. Bunday holatlar Xantington bashoratiga ham jiddiy qarashni talab etadi.

XX asr oxiri XXI asr boshidagi jahon siyosatining o'ziga xos yana bir tendensiyasi sifatida dunyoning turli mintaqalarida yangidan-yangi kuch markazlarining paydo bo'layotganligini va ularning kuch-qudrati tobora o'sib, yetakchi davlatlarga yangi raqobatchilar yetishib chiqayotganligini kiritish mumkin. Ayniqsa, ommaviy qirg'in qurollariga ega bo'lgan davlatlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Ilgari bunday davlatlar sirasiga bor-yo'g'i besh davlat AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy kirgan bo'lsa, hozirgi paytda ular safiga Hindiston, Pokiston, Isroil va KXDRni ham qo'shish mumkin. Bundan tashqari bir qator davlatlar ushbu qurollarni ishlab chiqarish salohiyatiga ega va ularning ba'zilar bu jarayonning ma'lum bir bosqichida turishibdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shuni aytish mumkinki, dunyo siyosiy rivojlanishining hozirgi holati, unda namoyon bo'layotgan tendensiyalar haligacha xalqaro maydonda va xalqaro munosabatlarda davlatlarning o'zaro kelishuvlariga asoslangan xalqaro tizimning shakllanmaganligini ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonlari ko'p jihatdan turli xalqlar va davlatlarni bir-birlariga bog'liq tomonlarini oshirgan bo'lsada, ba'zi bir jihatlari bo'yicha ularni bir-birlariga qarama-qarshi chiqishlariga ham sabab bo'lmoqda¹. Yuz berayotgan integratsiya jarayonlari natijasida davlatlar va hatto mintaqalar ham birlashayotganligi bilan bir vaqtda ayrim hududlarda dezintegratsiya jarayonlari ham namoyon bo'lmoqda. Jahon siyosatida ayrim yetakchi davlatlar tomonidan xalqaro huquq me'yorlariga, BMT Nizomida qayd etilgan tamoyillarga zid xatti-harakatlarning sodir etilishi va uning mavqeini inkor etuvchi holatlarning yuz berishi kuzatilmoqda.

¹ Титаренко М. Россия, Китай, Индия в глобальном мире. Международная жизнь. 6. 2002, С. 54-64.

II-BOB. INTEGRATSIYALASHUV DAVLAT TASHQI SIYOSATINING MUHIM YO‘NALISHI

2.1. O‘zbekiston tashqi siyosatida integratsiya masalalari

O‘zbekiston Respublikasi 1991 yil 31 avgustda mustaqillikni qo‘lga kiritgach, har tomonlama mustaqil rivojlanish va mustaqil tashqi siyosatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldi¹. Hozirgi kunda dunyoda 200 dan ortiq mustaqil davlat bo‘lsada, hammasi ham mustaqil tashqi siyosat yurita olmaydi. O‘zbekiston esa qisqa vaqt ichida mustaqil davlat sifatida mustaqil tashqi siyosat olib bora olishini amalda isbotladi. Bu jahon siyosatida davlatning nufuzini belgilovchi muhim mezondir. O‘zbekistonning xalqaro munosabatlar tizimiga kirib borishi va unda o‘z o‘rnini egallashi xalqaro siyosatning o‘ta chigallashgan davriga to‘g‘ri keldi. Bir tomondan xalqaro tartibot o‘zgarib, xalqaro siyosatning yangi o‘yin qoidalari shakllanayotgan, xalqaro munosabatlarning globallashuvi kengayib, uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, salbiy oqibatlari ham kuchayib borayotgan sharoitda, ikkinchi tomondan esa, ichki siyosatni uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq muammolarning o‘zaro bog‘liqligi holatida tashqi siyosatni aniqlab olish va amalga oshirishni har qanday davlat ham uddasidan chiqa olmaydi. O‘zbekiston ana shunday vazifani bajara oldi va jahon hamjamiyatining hurmatiga sazovor bo‘ldi².

Yangi mustaqil davlatning mustaqil tashqi siyosatini shakllantirishda ko‘p asrlik o‘zbek diplomatiyasiga tayanildi. Sharq va g‘arb mamlakatlarini bir-biriga bog‘lagan Buyuk ipak yo‘lining markazida joylashgan O‘zbekiston bir necha asrlardan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligining gullab-yashnashi Xitoy, Hindiston, Misr, Ispaniya, Fransiya va boshqa Yevropa va Osiyo davlatlari bilan faol siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalar bilan tavsiflanadi. Temurning diplomatik sa‘y-harakatlari tufayli o‘rta asrlardagi xalqaro

¹ Аскарлов М.Э., Аббасова А.Ш. Узбекистан по пути реформ. Внешняя политика. Т.: 2006, С.3 .

² Каримов И.А. Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йулида. Тошкент, 2005 йил. 266-б.

munosabatlar amaliyotida Yevropa va Osiyo umumiy geosiyosiy makon, deb qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.Karimov belgilab o‘tganlaridek, «XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyoni qamrab oladigan asr bo‘ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonlarini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko‘lamida ham, shuningdek, umuman butun sayyoramiz ko‘lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur»¹.

Tashqi siyosat – davlatning xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni taminlash borasidagi davlat faoliyatining yo‘nalishi va sohasi, shuningdek tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq va amaliy qadamlaridir. Tashqi siyosatning mohiyati uning davlat va xalqning suverenitetini taminlashdan iborat bosh va doimiy maqsadini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Milliy manfaatlarni himoya qilish bo‘yicha davlat tashqi siyosati mexanizmining butun sa‘y-harakati ijtimoiy-iqtisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni taminlashda o‘z ifodasini topadi².

Odatda, davlatning tashqi siyosat borasidagi sa‘y-harakatlari mamlakat strategik va hayotiy muhim milliy manfaatlarga ega bo‘lgan yoki bunday manfaatlarni ro‘yobga chiqarayotgan yo‘nalishlarga qaratiladi. «Asosiy yo‘nalishlar» mohiyat etibori bilan uzoq muddatli manfaat sifatida anglangan va qoida tariqasida boshqa davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiriladigan «tashqi siyosiy ustuvorliklar»dir.

O‘zbekiston uchun o‘ta muhim bo‘lgan ichki va tashqi siyosiy muammolarni hal etishda nafaqat murakkab o‘tish davrida, balki oddiy bo‘lmagan xalqaro vaziyatda amalga oshirildi. XX–XXI asrlarda «sovuq urush»ning tugashi va SSSRning barham topishi bilan xalqaro munosabatlarda yangi tizmning shakllanish jarayoni boshlandi. Bunda umumiy manfaatlar va chuqur ziddiyatlar, hamkorlik va raqobatga bo‘lgan tendensiyalar namoyon bo‘ldi. Dunyo hamjamiyati yangi tahdidlar va xavfsizlikning yangicha ko‘rinishlariga – xalqaro

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т: Ўзбекистон. 1997. 28-б.

² Колосов Ю.М. Международное право. М.: Международные отношения. 2000.: С.14.

terrorizm va ekstremizm, narkobiznes, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, uyushgan jinoyatchilikka duch keldi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti rahbarligida tashqi siyosatning o'ziga xos xususiyatlari shakllanib borayotgan va amalga oshirilayotgan «oldini olishga qaratilgan diplomatiya»si bo'ldi. Uning mohiyati shundaki, vujudga kelgan muammolarni mohiyatiga ko'ra, tizimli, mantiqiy ketma-ketlikda va prinsipial hal etish kerak. U tang vaziyatlarning oldini olish, nizoli va boshqa salbiy holatlarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik lozim. O'zbekiston Respublikasi ushbu diplomatiya doirasida BMT va boshqa xalqaro nufuzli tashkilotlarning minbarlaridan turib, bir necha bor va oldindan dunyo hamjamiyatini afg'on muammosini zudlik bilan hal etish, xalqaro terrorizm va ekstremizm, narkoagressiyaga qarshi jadal kurash olib borish, Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan holi hududni yaratish zarurligi haqida ta'kidlab o'tgan¹.

O'zbekiston Respublikasi davlat tashqi siyosatining asosiy qoidalari 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasi» va boshqa qonunchilik hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Ularga muvofiq tashqi siyosiy faoliyatning quyidagi asosiy tamoyillari belgilab olingan:

1. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va prinsiplariga, «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonuniga, «Mudofaa to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga, boshqa qonunlarga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining prinsiplari va maqsadlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini

¹ Аскарлов М.Э., Аббасова А.Ш. Узбекистан по пути реформ. Внешняя политика. Т.: 2006, С. 3.

ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.

3. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlarga aralashish, mustaqillikni va suverenitetni kamsitish hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishning har qanday ehtimolini istisno etuvchi teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni barcha davlatlar bilan yo'lga qo'yadi.

4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etish, Yevropa, Osiyo va jahon xavfsizlik tuzilmalariga integratsiyalashuv O'zbekiston Respublikasi tegishli tuzilmalarining tashqi siyosiy faoliyatidagi eng muhim vazifadir.

5. O'zbekiston Respublikasi mamlakatning barqarorligini, sobitqadam rivojlanishi va milliy xavfsizligini ta'minlash imkonini beradigan, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jalik aloqalariga axborot, texnologiya va kommunikatsiya jihatidan kirib borishiga ko'maklashadigan davlatlararo tuzilmalarga, shu jumladan, iqtisodiy tuzilmalarga ustuvor ahamiyat beradi.

6. O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonuniga va O'zbekiston Respublikasining «Harbiy doktrinasi»ga muvofiq harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi. O'zbekiston Respublikasi har qanday davlatlararo tuzilmadan, bu tuzilma harbiy-siyosiy blokka aylantirilgan taqdirda, chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7. O'zbekiston Respublikasi mintaqadagi hamda undan tashqaridagi mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida hukumatlararo va hukumatga qarashli bo'lmagan tuzilmalarning ishida faol qatnashadi¹.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi yillaridanoq mamlakatning pragmatik tashqi siyosiy strategiyasini ishlab chiqishga uning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari, shuningdek, O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan tenghuquqli va o'zaro manfaatdor munosabatlarni rivojlantirish bog'liqligini yaxshi anglandi. Har tomonlama aloqalarni o'rnatish O'zbekistonga dunyo

¹ Аскарлов М.Э., Аббасова А.Ш. Узбекистан по пути реформ. Внешняя политика. Т.: 2006, С. 5-6.

iqtisodiy aloqalar tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga, faol xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlikni amalga oshirish imkonini berdi¹. Hozirgi kunda O‘zbekiston to‘la huquqli asosda eng obro‘li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo‘lib, barcha qit‘alardagi o‘nlab mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Toshkentda 40dan ortiq elchixonalar, shuningdek, diplomatik maqomga ega 2 ta savdo vakolatxonalari, 11 ta xalqaro tashkilotlar, 17 ta xalqaro hukumat tashkilotlar akkreditatsiya qilingan. O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini 170 dan ortiq davlatlar tan oldi, ularning 120 dan ortig‘i bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. O‘zbekiston xorijda o‘zining 42 dan ortiq vakolatxonalarga ega.

Bugungi kunda davlatlarning milliy manfaatlari o‘zgarib bormoqda. Milliy manfaatlarning ahamiyati asosan ittifoqning parchalanishi va uning hududida yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bilan bevosita bog‘liq. Bu jarayonda har bir yangi mustaqil davlatlar o‘z suverenitetini mustahkamlash bilan bir qatorda, xalqaro munosabatlarda o‘z o‘rnini egallashga va hamkorlari bilan teng huquqli tarzda o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yishga intilib kelmoqdalar. Bunday sharoitda yangi mustaqil davlatlar uchun xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zero, o‘zaro hamkorlik, xoh u mintaqaviy darajada bo‘lsin, xoh global darajada bo‘lsin, bundan hamkorlik iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlik kafolatidir. Yangi suveren milliy davlatlarning vujudga kelishi Markaziy Osiyo mintaqasida mutlaq yangi strategik vaziyatni vujudga keltirdi. Mazkur davlatlar oldida ikkita o‘ta muhim vazifa: birinchisi, ichki milliy davlatchilikni shakllantirish va milliy totuvlikni ta’minlash masalasi, ikkinchisi esa xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’ekti sifatida tashqi siyosat olib borish masalasi edi². Bugungi kunda integratsiya jarayonlarining mintaqalarda shakllanishi va rivojlanishi unga a’zo bo‘lgan davlatlar uchun, mintaqalar uchun va xalqaro hamjamiyat uchun iqtisodiy barqarorlikka va siyosiy kelishuvga erishishda, xavfsizlikni ta’minlashda va milliy manfaatlarini himoya qilishida juda

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т: Ўзбекистон. 1997. 28-б.

² John Baylis. The Globalization of World Politics: An Introduction to international Relations, Oxford, 1997.P. 64.

keng imkoniyatlar tug'dirmoqda. Mazkur jarayonda har bir davlatning bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishi o'ta muhim masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda xalqaro aloqalar tizimining ko'rinishi mohiyati va sifati jihatidan o'zgardi. O'z ichiga o'nlab davlatlarni qamrab oluvchi yagona iqtisodiy makonlar vujudga keldi. Xalqaro barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda, ekologiya va ko'pgina boshqa muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik, insoniyatning bundan keyingi hayotining asosiy shartlaridan biri bo'lib qoldi. Radio va telekommunikatsiyalar, Internet va axborot tizimining tezkor rivojlanishi global axborot makonlarini yuzaga kelishiga olib keldi. Natijada jahonning ko'pko'rinishlilik oshdi, mintaqalarda hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratildi. Integratsiya jarayonlarini shakllantirish va rivojlantirish yo'lida har bir davlat uchun, mintaqa uchun uning darajalaridan bosqichma-bosqich o'tishi o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Jahon tajribasidan ma'lumki, integratsiya bir qancha bosqichlardan iborat. Integratsiyaning birinchi bosqichi bu ikki yoki ko'ptomonlama asosda savdo-iqtisodiy shartnomalarning imzolanishidir. Bu shartnomalarning mohiyati ishtirokchi davlatlarning tashqi dunyo bozoriga nisbatan ichki bozorida tovar va xizmatlarga qo'yiladigan tariflarni pasaytirish bilan bog'liq. Bu holat vaqtinchalik hisoblanadi. Chunki ichki bozor bilan tashqi savdodagi tafovut qo'shni davlatlar manfaatini kamsitilishiga olib keladi. Ammo bu bosqich integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga qaratilgan bo'lib, ular malum bir vaqtgacha davom etadi.

Ikkinchi bosqich – bevosita erkin savdo hududini shakllantirish bilan boshlanadi. Bu bosqichda ishtirokchi davlatlar o'rtasida bo'ladigan savdo-sotiqalarda barcha tariflar qilinadi. Biroq bu har bir davlat tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatlarida o'z bojxona siyosatini avtonomligini saqlab qolgan holda faoliyat olib boradi. Makur bosqichda ishtirokchi davlatlar tomonidan koordinatsion kengashlar tashkil qilish holatlari kuzatiladi. Erkin savdo hududlari sirasiga – 1960 yilda tashkil etilgan Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasini, 1994 yilda tashkil etilgan Yevropa Iqtisodiy hududini (YeYeA), 1994 yilda tashkil qilingan Shimoliy Amerika erkin savdo hududini (NAFTA) misol tariqasida etirof etish mumkin.

Integratsiyaning uchinchi bosqichi – davlatlar o'rtasida bojxona ittifoqini shakllantirish bilan boshlanadi. Bu bosqichda ishtirokchi davlatlar tomonidan milliy bojxona tariflari bekor qilinib, har bir davlat uchun umumiy bo'lgan bojxona

to'lovlar tizimi joriy etiladi. Bojxona ittifoqini tuzish shu hudud ichida to'lovlarsiz savdo-sotiqni amalga oshirish huquqini davlatlar uchun tavsiya etadi. Undan tashqari bu bosqichda davlatlar uchun ichki hududda mutlaq erkin harakat qilish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa o'z navbatida ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

To'rtinchi bosqich – umumiy bozorni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi. Bu bosqich nafaqat umumiy bojxona siyosati, tovar va xizmat aylanmalarini erkin aylanishini nazarda tutadi. Bu bosqich juda katta koordinatsion harakatlarni talab qiladi va u asosan davlat boshliqlari darajasida amalga oshiriladi.

Nihoyat, integratsiyaning yakuniy beshinchi bosqichi – bu ishtirokchi davlatlar o'rtasida iqtisodiy ittifoqni shakllantirish bilan boshlanadi. Mazkur bosqichda umumiy bojxona siyosati, resurslarning erkin harakatidan tashqari, makroiqtisodiy siyosatning asosiy sohalari bo'lmish: valyuta, budget ustidan nazorat ishlari olib boriladi. Bu jarayonda har bir davlat o'z vakolatlarining bir qismini ular tomonidan tuzilgan davlatlararo idoralar qo'liga topshiradilar.

XXI asrda dunyoda geosiyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda¹. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi-o'zidan qanoatlanishga o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda yangicha yondashuvlarni talab qiladi. O'zbekiston uchun, eng avvalo, tashqi siyosatning oqilona maqbullikka hamda davlatimiz, jamiyat va insonning uzoqni ko'zlovchi manfaatlariga asoslanadigan eng muhim tamoyillariga qat'iy rioya etish ulkan ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz uchun mustaqillik – o'z erkinligini anglashgina emas, balki o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidir. Shu bois o'z-o'zidan ayonki, agar integratsiya mamlakatimizning ozodligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini cheklab qo'ysa yoki qandaydir mafkuraviy majburiyatlar bilan bog'lansa, u holda chetdan olib kelinadigan har qanday integratsiya biz uchun nomaqbul. Integratsiya haqida gapirganda, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanish kerak. Bunga sherikchilik va

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т: Ўзбекистон. 1997. 296-б.

hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida – integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. O'zbekiston bir sub'ekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshi. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir. O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning turli sub'ektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, ular bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar, muammolar va hal qilinmagan masalalar, kutilmagan voqea-hodisalar shunchalik kam bo'ladi. Xuddi shu narsa xavfsizlikka solinayotgan tahdidlarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning zarur shartidir. Qolaversa, mamlakatlar va davlatlarning xavfsizlik darajasi ularning integratsiya jarayonlarida qatnashish darajasiga bevosita bog'liqdir. Mamlakat qanchalik integratsiya aloqalari bilan bog'langan bo'lsa, uning xavfsizligiga tahdid shunchalik kam bo'ladi. Jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida ishtirok etishdir. Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador bo'lgan xalqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan – oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan vositalarning hammasiga ega. BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkan va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarni tashkil etuvchilari hisoblanadi. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda. BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv, BMTning ixtisoslashgan muassasalari – YuNYeSKO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, YuNKTAD, YuNISYeF va boshqalar bilan keng hamkorlik qilishdir. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvini ta'minlashga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar ham yordam ko'rsatmokda¹.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт

Mamlakatimizning har yili Davos shahrida o‘tadigan Jahon iqtisodiy anjumani ishida qatnashishi katta ahamiyatga ega. Anjumanda qatnashish O‘zbekistonni va uning imkoniyatlarini tanishtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O‘zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, YeXHT, NATO, EKO, Qo‘shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. Bular orasida Yevropa Ittifoqi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston sho‘rolardan keyingi makonda Rossiyadan so‘ng ikkinchi bo‘lib Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida Bitim imzoladi. O‘zbekiston tashqi siyosatining Yevropa yo‘nalishi ancha kengaydi – ushbu yo‘nalish Yevropadagi ayrim mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni ham, shuningdek, butun Yevropa qit‘asini ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Yevropaning imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan hayotiy muhimdir. Yevropa va butun g‘arb – yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbaidir. Jamiyatimizning demokratik o‘zgarishlarni chuqurlashtirish yo‘lidan sobitqadam rivojlana borishiga boshqa xalqaro tashkilotlar bilan va, eng avvalo, Osiyo mintaqasidagi tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish ham yordam beradi.

Turkiytilli davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi to‘g‘risida alohida ta’kidlab o‘tish mumkin. Turkiytilli davlatlar boshliqlarining 1996 yil oktabr oyida Toshkentda IV uchrashuvi bo‘lib o‘tgan edi¹. Mazkur uchrashuv turkiytilli davlatlar munosabatlarining asosi, ya’ni ular xalqlarining tarixiy, etnik-madaniy va ma’naviy yaqinligidan iborat ekanligini yana bir bor tasdiqladi. 1996 yilda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida tuzilgan hamkorlik to‘g‘risidagi bitimga ko‘ra, mamlakatimiz bundan buyon Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib boradi².

кафолатлари. -Т: Ўзбекистон. 1997. 299-б.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т: Ўзбекистон. 1997. 300-б.

² Аскарлов М.Э., Аббасова А.Ш. Узбекистан по пути реформ. Внешняя политика. Т.: 2006, С. 7.

O‘zbekiston o‘zining tashqi aloqalarini ham ko‘p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish har qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq hisobga olish, bir-birini yaqindan tanish, uzoq muddatli o‘zaro manfaatli hamkorlikka mustahkam zamin hozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustahkam negiz yaratish imkonini beradi. Dunyoning yetakchi davlati bo‘lgan, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan AQSh bilan ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish biz uchun ustuvor ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda Yevropadagi ko‘pgina mamlakatlar – Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Gretsiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya va bir qator boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ikki tomonlama munosabatlar ancha kengaymoqda va mustahkamlanmoqda. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari – Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vetnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalar mustahkamlanib bormoqda. Mintaqaviy barqarorlik, mintaqa ko‘lamida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini hal qilishda ilgari Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan mamlakatlar o‘rtasida vujudga kelayotgan munosabatlar ham alohida o‘rin tutadi. Bu yerda shuni ta’kidlash kerakki, mustaqil O‘zbekistonni tashvishga solayotgan asosiy strategik masala – eski imperiyani qayta tiklashga yo‘l qo‘ymaslik masalasidir.

Hozirgi paytga kelib mintaqa xavfsizligiga faqat O‘zbekiston– Rossiya strategik hamkorligi kafolat bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi ikkala mamlakat uchun ham hamkorlikni rivojlantirishning istiqbolli imkoniyatlarini beradi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, ushbu hamkorlik hozirgi kunda strategik sheriklik darajasidan ittifoqdosh darajasiga ko‘tarildi¹. Avvalombor, ikkala mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jihatdan hamkorlik ehtiyoji paydo bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ikki davlat manfaatlarini xalqaro terrorizmga qarshi kurash yaqinlashtirdi. O‘zbekistonda Rossiya azaldan yirik iqtisodiy hamkorlardan biri ekanligini hech qachon unutishmagan.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йулида. Тошкент, 2005 йил. 358-359. б.

So‘nggi paytlarda Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning kengayishi o‘zaro manfaatlarni ifodalovchi tabiiy jarayonga aylandi. Bunday hamkorlikning asosini iqtisodiyotning oyoqqa turishi, har ikki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va bir-birini to‘ldirishi, hududiy yaqinlik transport infratuzilmasi hamkorligining yo‘lga qo‘yilganligi, sheriklarning bir-birini yaxshi bilishi, ularning xalqlarimiz umumiy madaniyatidan, fe‘l-atvoridan xabardorligi tashkil etadi. Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarning kengayishi Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mintaqaviy va global darajadagi barqarorlik va tinchlikni saqlash bo‘yicha xalqaro hamkorlik O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xavfsizlikning bo‘linmasligi tamoyiliga asoslangan holda, O‘zbekiston xalqaro tuzilmalarning, avvalo, BMT, YeXHT, ShHT, YevrOsIHLarning Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlashdagi rolini faollashtirishni yoqlaydi va yoqlab chiqadi.

Oxirgi yillarda Markaziy Osiyo butun dunyo hamjamiyati kabi xalqaro terroristik tashkilotlar, narkosindikatlari, turli ekstremistik kuchlar kabi muammolarga duch keldi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston tashqi siyosatining asosini mintaqaviy va global darajadagi tinchlikni saqlash bo‘yicha hamkorlik bo‘lib kelgan va bo‘lib qoladi.

Mintaqaning jug‘rofiy jihatdan ajralganligi va yopiqligi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Markaziy Osiyoni muqobil transport-kommunikatsiya yo‘llarini yaratish bilan «dezanklavizatsiya» etish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini davom ettiradi. Ushbu loyihani amalga oshirishda qo‘shni va manfaatdor davlatlar bilan hamkorlik va bunga donor davlatlar va xalqaro moliya tuzilmalarining ishtirok etish nafaqat mintaqadagi barqaror rivojlanishga olib keladi, balki Markaziy Osiyodagi geoiqtisodiy xaritaning umuman o‘zgartiradi.

2.2. O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar tizimida ishtirokining bugungi holati

O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan samarali amal qiluvchi mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar davlatlar o‘rtasida mustahkam va o‘zaro manfaatli munosabatlarni o‘rnatishga ko‘maklashadi, hamkorlik munosabatlari va integratsiyalashuv jarayonining rivojlanishi uchun mustahkam poydevorni yaratadi. Hozirgi kunda xalqaro tashkilotlar butun dunyoni qamrab olgan va ijtimoiy siyosiy hayotning barcha sohalariga kirib borgan. Har qanday davlatning birorta ham yirik muammosi ularning ishtirokisiz hal qilinmaydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro siyosatda olib borayotgan tashqi siyosatining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimiz mintaqaviy tashkilotlar bilan tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda Markaziy Osiyoda strategik mafaatlarni mustahkamlab faol hamkorlik qilmoqda. O‘zbekiston xalqaro siyosatda o‘zining munosib o‘rnini topishiga harakat qilib, tashqi siyosatida xalqaro tamoyillarga amal qilgan holda keng qamrovli siyosat olib boradi.

So‘nggi yillarda mintaqaviy doiradagi global iqtisodiy muammolarni hal qilish borasida davlatlarning turli mintaqaviy tashkilotlari tomonidan jiddiy harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Yevroosiyo Iqtisodiy hamjamiyati ancha faollik ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillardan biri – YevrOsIH omilidir.

YevrOsIHni tuzish to‘g‘risidagi Shartnoma 2000 yil 10 oktyabrda Qozog‘iston poytaxti Ostonada Belorussiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya va Tojikiston davlatlari tomonidan imzolangan. 2006 yilning 25 yanvarida Sankt-Peterburg shahrida tashkilotning Davlatlararo kengashining navbatdan tashqari yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Anjumanning bosh masalasi O‘zbekistonning mazkur hamjamiyatga kirganligining yuridik jihatdan rasmiylashtirilishi bo‘ldi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov «Markaziy Osiyo Hamkorligi» hamda va YevrOsIH tashkilotlari o‘zaro qo‘shilishining tashabbuskori bo‘ldi, bunda mazkur integratsiyaviy

uyushmalarning funksiyalari va vazifalari hamda ishtirokchi davlatlar tarkibi deyarli bir xil ekanligi inobatga olindi.

Sankt-Peterburgda O‘zbekiston Respublikasi va YevrOsIHga a‘zo bo‘lgan besh davlat birinchi prezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Yevroosiyo Iqtisodiy hamjamiyatini tashkil qilish haqidagi Shartnomaning imzolanishi respublika uchun ham, mazkur integratsiyaviy uyushmaning barcha a‘zolari uchun ham o‘ta muhim voqea bo‘ldi.

YevrOsIHni tashkil etish haqidagi Shartnomada hamjamiyat Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy hududni shakllantirish jarayonini samarali ilgari siljitish, dunyo iqtisodiy va xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuv jarayonida a‘zo davlatlar faolyatini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan¹.

YevrOsIH bilan Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIH) birlashtirish mintaqaviy darajadagi integratsiyaviy aloqalarni, shuningdek, a‘zo-davlatlar o‘rtasidagi ikki taraflama darajadagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda MOIH doirasida Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan ilgari ishlab chiqilgan mexanizmlarni YevrOsIHda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston ushbu tashkilotga 2006 yil 25 yanvarda qo‘shilishi haqida qaror qabul qilinib va shu yilning mart oyida Birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan O‘zbekiston Respublikasining «YevrOsIHni tuzish to‘g‘risidagi bitimni ratifikatsiyalash to‘g‘risida»gi qonunga imzo qo‘ydi hamda YevrOsIH a‘zo-davlatlarining fikricha, tashkilotning mintaqaviy hamkorligini rivojlantirishga imkon berishi va uning iqtisodiy imkoniyatlariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishini aytib o‘tishdi.

O‘zbekistonning YevrOsIHga qo‘shilishdan ko‘zlangan strategik manfaatlari quyidagicha:

2) O‘zbekistonning nafaqat davlatlar va mintaqalar bilan, balki Rossiya bilan ham integratsiyalashuv jarayonlarini chuqurlashtirishga oid uzoq muddatli mafaatlari bilan bog‘liq. YevrOsIH tarkibiga kiruvchi davlatlar manfaatiga javob beruvchi keng ko‘lamli iqtisodiy, kommunikatsiyaviy hamda gumanitar loyihalarini

¹ Грозин А. Экономическая интеграция в Центральной Азии.// Информационно-аналитический сервер APR.// www.caapr.kz/show.php?caa0810-01/htm.

amalga oshirish vazifasidir.

YevrOsIHning strategik maqsadlari a'zo mamlakatlar o'rtasida integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan. Mazkur murakkab vazifa Erkin savdo hududi va so'ngra Bojxona ittifoqini bosqichma-bosqich tashkil etishni o'z ichiga oladi. Natijada yagona umumiy bozor shakllanadi. A'zo mamlakatlar o'rtasida ishchi kuchi, mahsulotlar va xizmatlar erkin harakatlanadigan bo'ladi. Bojxona to'lovlari faqatgina uchinchi mamlakatdan keltiriladigan mahsulotlarga tadbiiq qilinadi va bir marta olinadi. Ichki chegaralar mahsulotlar va xizmatlar uchun ochiiq bo'ladi, tashqi chegaralar esa umumiyga aylanadi. Demak, o'zaro javobgarlik va shu bilan birga o'zaro ishonch doimiy ravishda mustahkamlanib boradi. Bularning bari iqtisodiy hamkorlik asosida davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishga, integratsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning YevrOsIHga qo'shilishi Yevroosiyo mintaqasida, misol tariqasida oladigan bo'lsak, transport kommunikatsiyasi, energetika, xalqaro savdo va boshqa sohalarda yirik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning mamlakatimizda yetishtiriladigan paxta, chorva mahsulotlari, qorako'l teri, poliz mahsulotlari va meva-chevalar Rossiya yoki Belorusiya bozorlarida so'zsiz o'z xaridorini topadi. Agar mahsulotlar ushbu mamlakatlar orqali Yevropa bozorlariga soddalashtirilgan tartibda borib tushishini hisobga oladigan bo'lsak, YevrOsIHning qulayliklari yaqqol namoyon bo'ladi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti 1996 yilda Rossiya, XXR, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida Shanxayda imzolangan chegara yaqinida harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash to'g'risidagi kelishuvlari orqali asos solingan edi. Keyinchalik bu uyushmaga O'zbekiston ham qo'shildi

va 2001 yil 15 iyunda Shanxay shahrida bo‘lib o‘tgan 6 davlat (Rossiya, XXR, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston) rahbarlari uchrashuvida «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti» tashkil etilganligi to‘g‘risida Deklaratsiya imzoladi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «Biz Shanxay Hamkorlik tashkilotiga tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan, ochiq, konstruktiv sherikchilik va, avvalambor, xalqaro terorizm, diniy ekstremizm, agressiv separatizm, narkobiznes kabi global hamda mintaqaviy tahdidlarga qarshi turuvchi ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmi sifatida qaraymiz».

Shanxay Hamkorlik tashkilotining boshqa a‘zo davlatlari singari O‘zbekiston ham o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, bir qator maqsadlarni ko‘zlab tashkilotga a‘zo bo‘lgan edi. ShHT vazifalaridan asosan ikkitasi – terorizmga qarshi kurash va keng qamrovli iqtisodiy hamkorlik tashkilotga a‘zo davlatlar uchun doimo o‘ta zarur va muhim yo‘nalishlar bo‘lib qoladi². Afg‘onistonda «Toliblar» rejimiga barham berilishi bilan terrorchi guruhlarining keng miqyosda faoliyat yuritish imkoniyatlari sirdan qaraganda kamaygan bo‘lsada, lekin Markaziy Osiyoda terorizm, ekstremizm va separatizm kuchlari asosiy tahdidlar sifatida saqlanib qolgan. Bu xatarlarni bartaraf etish va butunlay yo‘q qilish uchun ShHTga a‘zo davlatlar uzoq muddatli, kompleks chora-tadbirlar ko‘rishlari va kuchlarni birlashtirishlari lozim. Bu sohada ShHT Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyoning to‘rt davlatini birlashtirgan tashkilot sifatida katta salohiyat va ahamiyatga ega, chunki geografik jihatdan bu davlatlar bir hududda joylashgan va umumiy tashvish hamda manfaatlar doirasida chambarchas bog‘langan. O‘zbekistonning tashkilotga a‘ziligining bosh sababi ham aynan shunday tahdidlarni bartaraf etishni o‘zining asosiy maqsadi belgilagan ShHTni mintaqadagi xavfsizlik tizimi sifatida ko‘rishidir.

¹ Рахимова З. Узбекистан в системе ГУУАМ и Шанхайской организации сотрудничества // Центральная Азия и Кавказ, журнал социально-политических исследований, № 5 (17)-2001-С.195.

² Чжао Хуаншен. ШОС и соотношения великих держав на фоне новой ситуации в регионе ЦА. //Информационно-аналитический журнал «ANALITIC», № 1-2003.-С.3.//www. kisi.kz.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, «Shanxay beshligi» tuzilmasi aynan O'zbekistonning unga a'zo bo'lib kirganidan keyingina to'laqonli mintaqaviy xavfsizlik tizimiga aylandi va ko'p qutbli dunyoning shakllanishi uchun real instrument sifatida shakllandi¹.

Markaziy Osiyoda barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti muhim rol o'ynamoqda. ShHTning Toshkentda faoliyat olib borayotgan Mintaqaviy antiterroristik tuzilmasinig asosiy ahamiyati – axborot va malumotlar to'plash, terrorizm, diniy ekstremizm va separatizm kabi tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi umumjahon tizimiga muvofiq keladi va bu sohada faoliyat yurituvchi boshqa mintaqaviy tuzilmalar bilan kuchini muvofiqlashtiradi². ShHT a'zo-davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik orqali butun mintaqa taraqqiyotini tezlatish imkoniyatiga ega, mintaqadagi ko'plab muammolarni bartaraf etish va iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga hamkorlikdagi harakatlar orqali erishish mumkin³. Yangi transport yo'llarini qurish bo'yicha o'zaro aloqa ShHT doirasidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. ShHT a'zo-davlatlarining hududi Osiyo Tinch okeani mintaqasidan Yevropaga va Yaqin Sharqqa tabiiy tranzit yo'li bo'lishi mumkin. Andijon–Osh–Irkishtom–Qoshg'ar temiryo'l qurilishinig rejasi ushbu loyihani amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. U Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyoning sharq qit'asiga yuk tashish masofasini o'rtacha 800-1000 kmga qisqartirishi mumkin. Shuningdek, 2003 yil iyunida I.A.Karimovning Eron Islom Respublikasiga tashrifi chog'ida ham O'zbekistonning Afg'oniston va Eron orqali janubiy dengizga chiqish masalasi ko'rib o'tilgandi. Zero, kelajakda Xitoy bilan bog'lanishi kerak bo'lgan bu yo'lning O'zbekistonning ShHTga a'zo bo'lish sabablaridan biri ekanligini alohida qayd etib o'tish lozim. Markaziy Osiyo mintaqasida, qolaversa, ekologik vaziyatning yomonlashib borayotganligi Orol muammosining keskinligicha qolib ketayotganligi bilan izohlanadi. Ekologik muammolarni hal etish uchun

¹ Евдокимов Е. Шанхайская организация сотрудничества становится главным механизмом обеспечения стабильности в Центральной Азии //www.mfa.kz/russian/art-15.05.02.htm/

² Змеевский А.В. Шанхайская конвенция о борьбе с терроризмом, сепаратизмом и экстремизмом. // Московский журнал международного права, №4 – 2001.-С.38.

³ Чжао Хуаншен. ШОС и соотношения великих держав на фоне новой ситуации в регионе ЦА.//Информационно-аналитический журнал «ANALITIC» №1-2003.-С.3.//www.kisi.kz.

O‘zbekiston nafaqat qo‘shni davlatlar, balki Yevroosiyo mintaqasi davlatlari bilan ham ko‘p tomonlama hamkorlik qilishga to‘g‘ri keladi¹.

ShHTga a‘zo-davlatlar xalqaro huquq normalariga so‘zsiz amal qilinishi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tashkilotning barcha a‘zo-davlatlarida vujudga keladigan nizo va muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish bo‘yicha xalqaro huquqda e‘tirof etilgan normalarning ustuvorligini ta‘minlashni yoqlab chiqadi. ShHT allaqachon keng masalalar ko‘lami bo‘yicha samarali mintaqaviy va mintaqalararo o‘zaro ta‘sir etishning siyosiy platformasi sifatida o‘zini ko‘rsatdi. O‘zbekiston va uning qo‘shnilari nuqtai nazaridan, ushbu tuzilma Markaziy Osiyo davlatlari va hamkorlarining umumiy manfaatlariga tegishli muammolarni muhokama qilishda va hal etishda zarur va foydali forum hisoblanadi.

O‘zbekiston xalqaro tashkilotlarni turli mintaqalardagi davlatlarning hamkorligini rivojlantirish va jahonda o‘z manfaatlarini amalga oshirishning muhim manbai, deb hisoblaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti – 1945 yil 25 aprelda San-Fransiskoda tashkil etilgan. Mamlakatimiz tashqi siyosat sohasidagi vazifalarni hal etishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida etibor qaratadi. 1945-1990 yillarda xalqaro munosabatlar G‘arb va Sharq o‘rtasidagi «sovuq urush» siyosatining ustuvorligi sharoitida, ikkinchi tomondan esa qoloq va qashshoq Janub o‘rtasida tobora avj olib borayotgan ziddiyat ta‘sirida shakllandi². O‘zbekiston ham 1992 yilning 2 martidan etiboran BMT a‘zosi. Vatanimiz tarixi, xalqimiz hayotida muhim voqea bo‘lgan shu kundan boshlab O‘zbekiston bayrog‘i mazkur tashkilotning bosh qarorgohi uzra hilpirab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda xavfsizlikni va jahonning barcha mintaqalarida barqaror rivojlanishni mustahkamlash borasida BMT kabi boshqa global tuzilma mavjud emas, deb hisoblaydi.

¹ Калиева Д.А. Шанхайская Организация сотрудничества: перспективы развития. //www.kisi.kz./Parts/ExtPol-an3 Kalieva.html/

² Қосимова Н.А., Эргашев.Б. Давлатлар ва халқаро ташкилотлар. -Т.: Ўзбекистон, 2005. 298-б.

Shu bilan birga, ko‘p taraflama xalqaro munosabatlarda namoyon bo‘lgan tizimli inqiroz BMTning faoliyatiga salbiy ta‘sir qildi. Mahalliy qurolli to‘qnashuvlar, narkotik moddalar va qurollar bilan noqonuniy savdo qilish, terroristik faollikning kuchayishi va diniy ekstremizmning yoyilishi kabi jahon maydonidagi noan‘anaviy tahdidlar va chaqiriqlar mavjud tashkilotlarning tuzilishi va ularning faoliyatini qayta ko‘rib chiqishni talab etdi. Davlatlar oldida vujudga keladigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish uchun yangi institutsional mexanizmlarni yaratish zarurdir¹.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda BMTning markaziy o‘rnini kuchaytirish, yangi tahdidlar va chaqiriqlarga qarshi turish samaradorligi va imkoniyatlarini a‘zo-davlatlarning umumiy manfaatlarini ta‘minlashni hisobga olgan holda, oshirish uni isloh qilishning «tamal toshi» bo‘lishi kerak.

Butun jahon miqyosida tashkilotni xalqaro munosabatlarni jamoaviy tartibga solishning markaziy mexanizmi sifatida mustahamlash va xalqaro xavfsizlikni ta‘minlash BMT tasarrufiga tegishli resurslarni taqdim etishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi BMTni isloh etish tizimli va bosqichma-bosqich xususiyatga ega bo‘lishini, ko‘pchilikning fikrini inobatga olgan holda, keng maslahatlar yordamida amalga oshirilishini yoqlab chiqdi. Bu holatlarda ba‘zi keskin masalalar bo‘yicha murosaga erishib bo‘lmasa, dunyo hamjamiyatiga mos keladigan qarorlarni ishlab chiqish uchun maslahatlar olishni davom ettirish kerak, deb o‘ylaymiz. O‘zbekistonning pozitsiyasiga ko‘ra tashkilotni isloh etishda quyidagilarga asoslanish lozim:

- BMT Nizomining ruhiga mos kelishi;
- suveren tenglik, ichki ishlarga aralashmaslik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish tamoyillarini ifodalashi;
- davlatlar hamkorligining teng huquqliligini mustahkamlash;
- dolzarb xalqaro muammolarni hal etishda BMTning nufuzini va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish;

¹ Аскарлов М.Э., Аббасова А.Ш. Узбекистан по пути реформ. Внешняя политика. Т.: 2006. С.34-37.

-demokratiya va keng xalqaro murosaga asoslanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi global rivojlanish muammolarini hal etish, ekologik xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash va barcha davlatlarda globalizatsiyaning imkoniyatlaridan bir xil foydalanishda BMTning rolini oshirish kerak, deb hisoblaydi. Bizning mamlakat tashkilotning kambag'alchilik, savodsizlik va kasalliklarga qarshi kurash masalalari bo'yicha jahon miqyosidagi yagona yondashuvni shakllantirish yuzasidan amalga oshirayotgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Davlatlarning xavfsizlik, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik va taqiqlash to'g'risidagi ko'p tarafлама bitimlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarishi tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mantiqiy ketma-ketlikda va qat'iyatli tarzda BMTning qurolsizlantirish va qurollarni tarqatmaslik bo'yicha ko'p tarafлама mexanizmlarini kuchaytirishini yoqlab chiqadi. Shu munosabat bilan davlatimiz barcha mamlakatlarni yadroviy qurolni tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaga, kimyoviy va biologik qurollar bo'yicha konvensiyalarga, shuningdek, MAGATening kafolatlari to'g'risidagi shartnomalarga qo'shilishiga da'vat qiladi.

Mamlakatimiz BMT Xavfsizlik Kengashining terroristlarning ommaviy qirg'in qurollari va uni ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'lga kiritishga qarshi kurash to'g'risidagi 1540-sonli rezolyutsiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida BMT Xavfsizlik kengashining mazkur rezolyutsiyasi yuzasidan amaliy xatti-harakatlar amalga oshirilmoqda. 2004 yilning sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadroviy fizika institutida ishlatilmaydigan yadroviy yonilg'i Rossiyaga olib ketildi.

Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishni yoqlab chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi BMTning tegishli tuzilmalariga va boshqa xalqaro tashkilotlarga ushbu davlatda olib borilayotgan qayta tiklash ishlariga ko'maklashmoqda. BMT Afg'onistonning xavfsizlik masalalaridan tashqari,

afg'on iqtisodiyotini qayta tashkil etish, mamlakat aholisini tinch hayotga jalb etishga ham katta e'tibor qaratishi kerak.

BMTning oldida turgan birinchi navbatdagi masalalardan biri xalqaro terrorizmga qarshi kurashish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi «terrorizm» tushunchasining aniq va kelishilgan ta'rifiga asoslangan holda, umumjahon antiterroristik konvensiyasini tuzish kerak, deb hisoblaydi. Radikal ekstremistik tashkilotlardan shu bilan birga, «Hizb ut-tahrir»dan kelib chiqadigan tahdidlarga qarshi qat'iy choralarni ko'rish lozim.

BMTning barcha 12 ta konvensiyalari ishtirokchilari bo'lmish O'zbekiston bir qator yillar mobaynida xalqaro terroristlarga qarshi kurashishda dunyo hamjamiyatining sa'y-harakatlarini birlashtirishni yoqlab chiqadi va BMT Xavfsizlik Kengashining 2001 yildagi 1373-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq, Kontrterroristik qo'mitaning tuzilishini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi BMT tomonidan o'tkaziladigan konferensiyalar va uchrashuvlar hamda Ming yillik Deklaratsiyasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni barcha davlatlar so'zsiz bajarishi kerak, deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, globallashtayotgan bugungi kunda O'zbekistonning Yevroosiyo, Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya, XXR bilan hamkorlik qilish va ular bilan barcha sohalarda o'zaro aloqalarni mustahkamlashga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirmoqda. O'zbekistonning ShHT, YevrOsIH va BMT doirasidagi faoliyati uning istiqboldagi taraqqiyoti uchun muhim ijobiy rol o'ynashi tabiiy. Shunday bo'lgan taqdirdagina O'zbekistonning xavfsizligi va iqtisodiy izolyatsiyadan chiqishi ta'minlanadi va tezlashadi. O'zbekistonning geografik nuqtai nazaridan tashqi dunyoga chiqishi imkoniyatlari har tomonlama kengayadi.

XULOSA

Hozirgi vaqtda jahonning ko'pgina mamlakatlarida kechayotgan global jarayonlarni jadal ravishda o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylanib qoldi. O'tkazilayotgan bunday tahlillardan olinadigan natijalar davlatlarning ham ichki, ham tashqi siyosatini ishlab chiqishga va yuzaga kelgan sharoitga optimal ravishda moslashib olishga asos bo'la oladi.

Tadqiqot xulosasida integratsiya muammolari tahlilining nazariy-siyosiy asoslari va integratsiyalashuv omilining davlat tashqi siyosatining muhim yo'nalishi ekanligi borasida quyidagi fikrlarni keltirishni lozim topdik:

Birinchidan, integratsiya jarayonlarini rivojlantirish unga a'zo bo'lgan davlatlar uchun, eng avvalo, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda, siyosiy kelishuvga erishishda, ularning xalqaro munosabatlarda munosib o'z o'rnini egallashlarida, dunyo xalqaro iqtisodiy tizimiga qo'shilishida, ishlab chiqarishni samarali rivojlantirishda, milliy manfaatlarga erishishda va oxir-oqibat xalq farovonligini ta'minlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, integratsiyani rivojlantirish va shakllantirish uchun ishtirokchi davlatlar geografik jihatdan bir-biriga yaqin hududda joylashgan, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi nuqtai nazaridan yaqin va o'zaro bog'liq holatda bo'lishlari o'ta muhim. Insoniyat sivilizatsiyasining tarixiga nazar solgan, tahlil qilgan va uning rivojlanish ob'ektiv qonuniyatlarini to'g'ri anglagan holda, davlatlarning siyosiy integratsiyalashuvidan voz kechib, iqtisodiy integratsiyalashuv tomon keskin burilish qilish davri kelganligini to'g'ri anglash insoniyat kelajagi uchun muhimdir.

Uchinchidan, hozirgi kunda O'zbekiston tashqi siyosatida uzoq muddatli faoliyat olib boradigan va real amaliy yordam ko'rsata oladigan strategik hamkorlarni orttirish maqsadida harakat qilmoqda. Aynan

shunday hamkorlar davlat xavfsizligini ta'minlashda va barqaror rivojlanish dinamikasiga erishishda muhim rol o'ynashadi.

To'rtinchidan bugun jahonda kechayotgan integratsion jarayonlar tadqiqotchilar bilan birga, bir qator yetakchi davlatlar, siyosatchilar va iqtisodchilarning e'tiborini o'ziga jalb qildi. Bunga asosiy sabab sifatida jahonda katta salohiyatga ega bo'lgan davlatlarning paydo bo'lishi va o'zaro jiplashish harakatlari, dunyo xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarning (noqonuniy harbiy bo'linmalar, terrorizm, narkobizness, diniy ekstremizm va b.) yuzaga kelishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlar ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga asoslangan. O'zbekiston o'z tashqi siyosatida jahon hamjamiyatining yalpi, umumiy manfaatlari hamda milliy manfaatlarning uyg'unligi, umumbashariy va milliy qadriyatlar mutanosibligiga katta e'tibor berib kelmoqda.

Beshinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatini bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka asoslangan tarzda olib bormoqda. Shuningdek, O'zbekiston hozirgi kunda jahon hamjamiyatining nufuzli, ilg'or mamlakatlari bilan o'zaro tenglik va do'stlik tamoyillariga asoslangan hamkorlik rishtalarini o'rnatishga harakat qilmoqda.

Oltinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatida amalga oshirilayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar mamlakat tashqi siyosatining uzoq muddatli maqsadlari sifatida respublikamizning mustaqil davlat timsolida yanada takomillashishi va rivojlanishini belgilab bermoqda. O'zbekiston tashqi siyosatida integratsiyalashuv omiliga ustuvor yo'nalish sifatida qaralish hamda xalqaro tashkilotlar tizimida faol ishtirok etish orqali jahon hamjamiyatiga munosib darajada kirib borish vazifasi so'zsiz shart qilib qo'yilgan, desak adashmaymiz.

Tadqiqotda bildirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi takliflarni berishni lozim topdik:

1. O‘zbekistonning ShHT, YevrOsIH, KXShT va boshqa integratsion birlashmalarda ishtirok etishi davlat manfaatlariga mos kelishi tabiiy. Biroq, bizningcha, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida integratsion munosabatlarni yangidan shakllantirish va rivojlantirishda asosiy tashabbuskorlardan biri bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. Integratsiyalashuv omili O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida muhim yo‘nalishlardan biri ekan, avvalo, bu jarayonni chegaradosh davlatlar bilan o‘zaro manfaatlar muvofiqligi asosida yo‘lga qo‘yishi lozim. Negaki, dunyoning har qanday davlati (rivojlanishining qanday darajaligidan qat’iy nazar) tashqi siyosatida chegaradosh davlatlarga ustuvor yo‘nalishda qaralishi hammaga ma’lum.

3. Fikrimizcha, Markaziy Osiyo mintaqasida integratsion jarayonlarning tadrijiy taraqqiyoti ko‘p jihatdan O‘zbekiston va Qozog‘iston davlatlari o‘rtasidagi konstruktiv munosabatlarga bog‘liq. Bu jihatdan ikkala davlat o‘rtasida ba’zi kelishmovchiliklarga (latent holdagi) chek qo‘yilishi mintaqaning umumiy taraqqiyotiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

Ilmiy ish muxtasarida tadqiqot ilmiy farazlariga nisbatan quyidagi fikrlarni aytish mumkin:

- «O‘zbekiston uchun mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan o‘rnatilgan ko‘p tomonlama hamkorlik samaraliroqdir» - degan farazimiz o‘z tasdig‘ini topdi. Bunga O‘zbekistonning Shanxay Hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati va boshqa davlatlarning integratsion birlashmalarini misol sifatida keltirish mumkin.

Shu o‘rinda aytish joizki, Yevropaning iqtisodi yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish mamlakatimiz uchun ham muhim hisoblanadi. O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalari respublika tashqi siyosatining ko‘p tomonlamaligi va ochiqligi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar,

mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam o‘zaro foydali va tengma-teng munosabatlarini o‘rnatishga yondashuvlarni belgilab beradi.

«O‘zbekiston-Qozog‘iston o‘rtasidagi konstruktiv munosabatning taraqqiyoti Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlar istiqbolini belgilab beradi» - degan ikkinchi faraz ham o‘z tasdig‘ini topdi. Chunki mintaqadagi asosiy moddiy va mehnat resurslari, transport kommunikatsiyalari hamda mintaqaning nisbatan rivojlangan infrastrukturasini ushbu respublikalar hududida joylashgan. Shu boisdan mazkur davlatlar o‘rtasidagi har tomonlama munosabatlarning mustahkamlanishi mintaqaviy integratsiya jarayonining rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.:”Ўзбекистон”, 2018. – 40 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисида. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
3. “Марказий Осиё давлат раҳбарлари томонидан минтақа экологиясини яхшилаш, сув ресурслари ва атроф – табиий муҳитни бошқариш тўғрисида”ги декларация. Ашхобод,1999. // www.cawater-info.net ДСМК ИТМ материаллари.
4. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. / Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017.
5. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. / Toshkent : O‘zbekiston, 2017.
6. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000. -483 с.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999. -16 б.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: “Ўзбекистон”, 1999. - 513 б.
9. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1998. - 314 б.
- 10.Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
- 11.Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
- 12.Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни

13. демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 96 б.
14. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.
15. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 413 б.
16. “Темур тузуклари”. Т.: Ғ.Ғуломов нашриёти, 1991.
17. Арон Р. Мир и война между народами. Под.общ.ред. В.И.Даниленко. – М.: NOTA BENE, 2000.
18. Аскарлов М.Э., Аббасова А.Ш. Внешняя политика. Узбекистан по пути реформ – Т.: «Фонд региональной политики Республики Узбекистан», 2006 г.
19. Бжезинский Зб. Великая шахматная доска. М.: Международные отношения, 1998.
20. Бобокулов И.И., Мухамеджанов А.Н. Международные организации и механизмы по обеспечению мира и безопасности (краткий справочник). Т.: ВШСАиП, 2003.
21. Громько А.А. и др. Дипломатический словарь. М.: «Наука», 1984.
22. Дугин А. Основы геополитики. - М.: «Арктагея», 1997.
23. Жумаев Р. Давлат ва жамият: демократиялаш йўлида. Т.: “Шарқ”, 1998.
24. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Т.: “Шарқ”, 2000.
25. Зиёев Ҳ.З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: “Шарқ”, 1998.
26. Касенов У.Т. Безопасность Центральной Азии: национальные, региональные и глобальные проблемы. Алматы: Кайнар, 1998.
27. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. А.Жалолов ва Қ.Хоназаров умумий таҳририда. Т.: “Шарқ” 1998.
28. Носиров Ў. Президент Ислом Каримов: Афғонистонда тинчлик ва ҳавфсизлик учун. Т.: “Тошкент Ислом университети”. 2002.

29. Политология. Краткий словарь. Под ред. В.Н. Коновалова. Ростов на Дону, «Феникс», 2001.
30. Сагдуллаев А. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамияти тараққиёти. Т.: «Академия», 2000.
31. Словарь иностранных слов. 14-изд. М.: «Русский язык», 1987.
32. Спиридонов И.А. Мировая экономика. М.: Инфра-М, 1999.
33. Сыдикова З. За кулисами демократии по кыргызски. – Бишкек: «Republika». 1997.
34. Топорин Б.Н. Европейское право: Учебник. М.: Юристъ, 1998.
35. Хидоят Г.А. Британская экспансия в Средней Азии. Т.: «Фан», 1981.
36. Центральная Азия: геоэкономика, геополитика, безопасность Ред. колл.: Р.М. Алимов, Ш.Р. Арифхонов и др.- Т.: «Шарк», 2002.
37. Цыганков П.А.. Международные отношения. — М.: Новая школа, 1996.
38. Якобайт К. Теория региональной интеграции. Региональная интеграция в Центральной Азии. – Берлин.: Германский фонд международного развития, 1995.
39. Акинер Ш. Региональное сотрудничество в Центральной Азии // «Аналитик» Аналитическое обозрение, №3-2001.
40. Акмал Абдуразаков. Торгово-экономические аспекты центральноазиатской интеграции // «Экономическое обозрение», №2, 2005 года, стр. 12-16. ЕС в Центральной Азии. // Журнал "Новые рынки" № 5, 2001.
41. Виктор Абатуров. Осеннее давление геополитики. Обзор интеграционных процессов в Центральной Азии. // «Экономическое обозрение», № 12, 2004 года, № 1, 2005 года, стр.65-68 и 37-41.
42. Исмагамбетов Т. Структурирование нового геополитического пространства Центральной Азии: региональные особенности и

GLOSSARIY

Geosiyosat – davlatning strategik qudratiga ta'sir etuvchi geografik, tarixiy, siyosiy va boshqa o'zaro bog'liq bo'lgan omillarni birgalikda ko'ruvchi va tadqiq etuvchi tarmoqlararo fandır.

Geosiyosiy kuch markazi – geosiyosiy jihatdan jahon siyosiy xaritasida keng qulayliklarga hamda u yoki bu darajada xalqaro siyosatga ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'lgan davlat yoki davlatlar birlashmasi.

Geosiyosiy markaz – davlat yoki mintaqaning kuch sifatida shakllanganligini emas, balki harakatdagi boshqa kuchlar uchun makonning geostrategik ahamiyatdagi geografik kenglikda joylashganligini nazarda tutadi.

Globalashuv – butun yer kurrasini qamrab oluvchi va bugungi kunda jahon miqyosida turli sohalarda kechayotgan o'zaro aloqadorlilik jarayonidir.

Demokratizatsiya (demokratlashuv) – milliy jamiyatlarning o'ziga xos an'anaviy qadriyatlarini inkor qiluvchi va dunyoviy e'tirof etilgan qadriyatlar va umumiy qoidalarga o'tish zaruriyatini talab qiluvchi tushuncha.

Integratsiya – (lotincha *integration* – tiklash, to'ldirish, *integer* – butun so'zidan) – tizim yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha.

Milliy manfaat – 1) millat, millat vakillarining ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq omillar; 2) milliy davlatga moddiy, ma'naviy, uning ichki va tashqi siyosatiga mos keluvchi, naf keltiruvchi omillar.

Paradigma (yunoncha *paradigma* – namuna, misol, isbot) – 1) anglab yetilgan haqiqat; 2) xalqaro munosabatlarga daxldor bo'lgan u yoki bu darajadagi muammolarning ilmiy jihatdan asoslanishi va ularni bartaraf etishga qaratilgan haqiqatlar majmuasi.

Region – (lotincha *regio* – o'lka) – yirik hududiy birlik (masalan, tabiiy, iqtisodiy, siyosiy); odatda, regionga nisbatan kattaroq bo'ladi.

Tashqi siyosat – davlatning xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni taminlash borasidagi davlat faoliyatining yo‘nalishi va sohasi, shuningdek tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq va amaliy qadamlaridir.